



PRINT ISSN 2181-9637
ONLINE ISSN 2181-4317

ILM-FAN VA INNOVATION RIVOJLANISH

НАУКА И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ

SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT

VOLUME 7 | ISSUE 5 | SEPTEMBER – OCTOBER 2024



TOSHKENT – 2024



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

Muassis:

**Innovatsion
rivojlanish agentligi
huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot
markazi**

**"ILM-FAN VA
INNOVATSION
RIVOJLANISH"
ilmiy-texnikaviy jurnal**

7-jild / 5-2024

**Jurnal 2018-yildan
nashr etilmoqda**

Jurnal O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
2018-yil 28-mayda
davriy nashrlar uchun
belgilangan 0974
raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Ushbu nashr
O'zbekiston
Respublikasi
Oliy attestatsiya
komissiyasining
texnika fanlari
bo'yicha chop etishga
tavsiya qilingan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Direktor:
S.J. Nazirov

Bosh muharrir:
H.R. Saloyeva

Muharrirlar:
F.A. Muhammadiyeva
Y.A. Yarmolik
M. Kamalova

TAHRIR KENGASHI RAISI

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,
tex. f. d., prof., O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Salimov Oqil Umurzoqovich,
tex. f. d., prof., akademik,
Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash
"Ulug'bek" jamg'armasi rahbari

Karimov Komiljon Hamidovich,
s. f. n. (PhD), Toshkent shahridagi Xalqaro
Vestminster universiteti rektori

Turdikulova Shaxloxon O'tkurovna,
b. f. d., prof., O'zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi vitse-prezidenti

Rajabbayev Sharof Raximberdiyevich,
i. f. n., O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Innovatsion rivojlanish agentligi direktori

Musayev Jahongir Payazovich,
p. f. d., prof., O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

O'zbekistonlik ekspertlar

Sagdullayev Shomansur Shoxsaidovich,
tex. f. d., prof., akademik O'zR FA O'simlik
moddalar kimyosi instituti direktori

Majidov Inomjon Urushevich,
tex. f. d., prof., O'zbekiston Milliy universiteti
rektori

Turaxodjayev Nodir Djaxangirovich,
tex. f. d., prof., Toshkent davlat texnika
universiteti "Quymakorlik texnologiyalari"
kafedrasida mudiri

Jumaniyazov Kadam,
tex. f. d., prof., "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ
bosh direktorining ilmiy ishlar va innovatsiya
bo'yicha birinchi o'rinbosari

Matyakubova Paraxat Mayliyevna, tex. f. d.,
prof., Toshkent davlat texnika universiteti
"Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish,
standartlashtirish va sertifikatlashtirish"
kafedrasida mudiri

Toirov Olimjon Zuvurovich,
tex. f. d., prof., Toshkent davlat texnika
universiteti "Elektr mashinalari" kafedrasida
mudiri

Axatov Akmal Rustamovich,
tex. f. d., prof., Sh. Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti xalqaro
hamkorlik bo'yicha prorektor

Jumayeva Dilnoza Jo'rayevna,
tex. f. d., prof., O'zR FA Umumiy va noorganik
kimyo instituti bosh ilmiy xodimi

Matkarimov Soxibjon Turdaliyevich,
tex. f. d., prof., O'zbekiston-Yaponiya yoshlar
innovatsiya markazi "Konchilik ishi va mineral
xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash"
laboratoriyasi mudiri

Axmedov Jaxongir Adxamovich,
tex. f. d., Toshkent to'qimachilik va yengil
sanoat instituti "Ipak texnologiyasi" kafedrasida
professori

Qayumov Jo'ramirza Abdirammatovich,
tex. f. d., prof., Samarqand davlat arxitektura-
qurilish universiteti rektor maslahatchisi

Primova Xolida Anorboyevna
tex. f. d., Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali "Axborot texnologiyalari"
kafedrasida professori

Xorijiy ekspertlar

Murzin Dmitriy Yuryevich,
k. f. d., prof., Abo Akademiyasi universiteti
(Finlyandiya)

Parmon Valentin Nikolayevich,
k. f. d., prof., Rossiya Fanlar akademiyasining
Sibir filiali raisi

Axmetova Irina Gareyevna,
tex. f. d., prof., "Qozon davlat energetika
universiteti", Rivojlanish va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori (Rossiya)

Nikolayeva Larisa Andreyevna, t. f. d.,
prof. "Qozon davlat energetika universiteti"
"Muhandislik ekologiyasi va mehnat
xavfsizligi" kafedrasida mudiri
(Rossiya)

Yusupov Ziyodulla Erkinovich,
tex. f. d., prof., Karabuk universiteti professori
(Turkiya)

Riklin Dmitriy Borisovich, tex. f. d., prof.,
Vitebsk davlat texnologiya universitetining
"To'qimachilik materiallari texnologiyasi"
kafedrasida mudiri (Belarus)

Kuznetsova Tatyana Fedorovna, k. f. n.,
dotsent, Belarus Milliy fanlar akademiyasi
Umumiy va noorganik kimyo instituti
"Adsorbentlar va adsorbsion jarayonlar"
laboratoriyasi mudiri

Hafeezulloh Memon,
tex. f. f. d. (PhD), Zhejiang fan-texnika
universiteti (Xitoy)

MUNDARIJA

05.01.08 – TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQUARISHLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH

Rejabov Sarvar Abdurasulovich, Usmonov Botir Shukurillayevich, Usmanov Komil Isroilovich, Artikov Asqar Asqarovich

Noqat'iy mantiq asosida bilvosita quyosh quritgichlarining harorat dinamikasini bashorat qilish 8

05.02.02 – MEXANIZMLAR VA MASHINALAR NAZARIYASI. MASHINASHUNOSLIK VA MASHINA DETALLARI

Shaxobutdinov Rustam Erkinbayevich, Karimova Anorgul Ruzimovna, Nosirov To'liq Narzulla o'g'li Maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishda ko'p kirimli zoldir prokatlash

valoklaridan foydalanish 19

05.02.03 – TEXNOLOGIK MASHINALAR, ROBOTLAR, MEXATRONIKA VA ROBOTOTEXNIKA TIZIMLARI

Qirg'izov Madyor O'ktamali o'g'li, Raximov Fayzullo Xusanboy o'g'li, Muradov Rustam Muradovich Paxta tozalash qurilmasining samarali ishlashini ta'minlovchi optimal parametrlarni

aniqlash 30

05.05.06 – QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA TURLARI ASOSIDAGI ENERGIYA QURILMALARI

Umarov Sardor Fotixovich

Tut ipak qurti pillasi g'umbagini jonsizlantiruvchi quyosh qurilmasi ichidagi harorat va namlik rejimlarining tajribaviy tadqiqotlari 41

05.05.08 – ELEKTRONIKA

Hamzayev Dilshod Inomdjonovich

RFID texnologiyasi tizimi ishlash masofasiga muhitning namlik va harorat ta'sirini o'rganish 54

05.06.02 – TO'QIMACHILIK MATERIALLARI TEXNOLOGIYASI VA XOMASHYOGA DASTLABKI ISHLOV BERISH

Saloxiddinova Maxliyo Nurmuxammad qizi, Qosimov Axtam Akramovich

Paxtani tashishda havodan ajratish jarayoni eksperimentlarini rejalashtirish va optimallashtirish 70

05.06.04 – TIKUVCHILIK BUYUMLARI TEXNOLOGIYASI VA KOSTYUM DIZAYNI

Norboyeva Gulasal Narzullayevna

Avtomobil sanoati ishchilari uchun yangi assortimentdagi maxsus kiyim loyihalashda tavsiyalar ishlab chiqish 85

Orziqulova Gavharxon Sultonmurod qizi, Rasulova Mastura Kabilovna

Bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi uchun qo'llanadigan materiallarning xususiyatlari tadqiqini ekspert baholash 94

05.09.07 – GIDRAVLIKA VA MUHANDISLIK GIDROLOGIYASI

Arifjanov Aybek Muxamedjanovich, Samiyev Luqmon Nayimovich, Xoshimov Sardorbek Ne'matjon o'g'li, Ulashov Qudratilla Chori o'g'li

Suv ombori drenajlarida dala tadqiqotlari olib borish 103



**МИНИСТЕРСТВО
ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

Учредитель:

**Центр
научно-технической
информации при
Агентстве
инновационного
развития**

**Научно-технический
журнал «НАУКА И
ИННОВАЦИОННОЕ
РАЗВИТИЕ»**

Том 7 / 5-2024

**Журнал издаётся с
2018 года.**

Журнал зарегистрирован в Агентстве печати и информации Узбекистана 28 мая 2018 года под номером 0974 для периодических изданий.

Данное издание включено в список научных изданий, рекомендованных к публикации по техническим наукам ВАК Республики Узбекистан.

Директор:
С.Ж. Назиров

Главный редактор:
Х.Р. Салоева

Редакторы:
Ф.А. Мухаммадиева
Е.А. Ярмолик
М. Камалова

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОГО
СОВЕТА**

Шарипов Конгратбай Аvezимбетович, д. т. н., проф., Министр высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО
СОВЕТА**

Салимов Окил Умурзокович, д. т. н., проф., академик, руководитель Фонда поддержки одарённой молодёжи «Улугбек»

Каримов Комилжон Хамидович, к. п. н. (PhD), ректор Международного Вестминстерского университета в Ташкенте

Турдикулова Шахлохон Уткуровна, д. б. н., проф., вице-президент Академии наук Республики Узбекистан

Ражаббаев Шароф Рахимбердиевич, к. э. н., директор Агентства инновационного развития Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Мусаев Жахонгир Паязович, д. п. н., проф., заместитель начальника управления науки и инновационного развития Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Эксперты из Узбекистана

Сагдуллаев Шомансур Шохсаидович, д. т. н., проф., академик, директор Института химии растительных веществ АН Республики Узбекистан

Тураходжаев Нодир Жахонгирович, д. т. н., проф., заведующий кафедрой «Литейные технологии» Ташкентского государственного технического университета

Жуманиязов Кадам, д. т. н., проф., первый заместитель генерального директора по научной работе и инновациям АО «Научный центр хлопковой промышленности»

Матякубова Парахат Майлиевна, д. т. н., проф., заведующая кафедрой «Метрология, техническое регулирование, стандартизация и сертификация» Ташкентского государственного технического университета

Тоиров Олимжон Зувурович, д. т. н., проф., заведующий кафедрой «Электрические машины» Ташкентского государственного технического университета

Ахатов Акмал Рустамович, д. т. н., проф., проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета им. Ш. Рашидова

Жумаева Дилноза Жураевна, д. т. н., проф., главный научный сотрудник Института общей и неорганической химии АН Республики Узбекистан

Маткаримов Сохибжон Турдалиевич, д. т. н., проф., заведующий лабораторией «Горное дело и глубокая переработка минерально-сырьевых ресурсов» Узбекско-Японского инновационного центра молодёжи

Ахмедов Жахонгир Адхамович, д. т. н., проф. кафедры «Технология шёлка» Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности

Каюмов Журамирза Абдирамович, д. т. н., проф., советник ректора Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета

Примова Холида Анорбоевна, д. т. н., проф. кафедры «Информационные технологии» Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий им. Мухаммада ал-Хорезми.

Иностранные эксперты

Мурзин Дмитрий Юрьевич, д. х. н., проф., заведующий лабораторией промышленной химии и реакционной техники химико-технологического факультета Университета Або Академии, Турку (Финляндия)

Пармон Валентин Николаевич, д. х. н., проф., председатель Сибирского отделения РАН (Россия)

Ахметова Ирина Гареевна, д. т. н., проф., проректор по развитию и инновациям ФГБОУ ВО «Казанский государственный энергетический университет» (Россия)

Николаева Лариса Андреевна, д. т. н., проф., заведующая кафедрой «Инженерная экология и безопасность труда» ФГБОУ ВО «Казанский государственный энергетический университет» (Россия)

Юсупов Зиёдулла Эркинович, д. т. н., проф., Карабулукский университет (Турция)

Рыклин Дмитрий Борисович, д. т. н., проф., заведующий кафедрой «Технология текстильных материалов» Витебского государственного технологического университета (Беларусь)

Кузнецова Татьяна Фёдоровна, к. х. н., доцент, заведующая лабораторией адсорбентов и адсорбционных процессов Института общей и неорганической химии НАН Беларуси

Hafeezulloh Memon, д. ф. т. н. (PhD), Чжэцзянский научно-технический университет (Китай)

СОДЕРЖАНИЕ

05.01.08 – АВТОМАТИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ

Режабов Сарвар Абдурасулович, Усмонов Ботир Шукуриллаевич, Усманов Комил Исроилович, Артиков Аскар Аскарович

Прогнозирование динамики температуры косвенных солнечных сушилок на основе нечёткой логики 8

05.02.02 – ТЕОРИЯ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН. МАШИНОВЕДЕНИЕ И ДЕТАЛИ МАШИН

Шахобутдинов Рустам Эркинбаевич, Каримова Аноргул Рузимовна, Носиров Тулкин Нарзулла угли

Применение многозаходных шаропрокатных валков при производстве стальных помольных шаров 19

05.02.03 – ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ МАШИНЫ. РОБОТЫ, МЕХАТРОНИКА И РОБОТОТЕХНИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ

Киргизов Мадёр Уктамали угли, Рахимов Файзулло Хусанбой угли, Мурадов Рустам Мурадович

Определение оптимальных параметров, обеспечивающих эффективную работу хлопкоочистителя 30

05.05.06 – ЭНЕРГОУСТАНОВКИ НА ОСНОВЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ВИДОВ ЭНЕРГИИ

Умаров Сардор Фотихович

Экспериментальные исследования температурного и влажностного режима внутри солнечного устройства для замаривания коконов тутового шелкопряда 41

05.05.08 – ЭЛЕКТРОНИКА

Хамзаев Дилшод Иномджонович

Исследование влияния влажности и температуры окружающей среды на дальность действия системы RFID-технологий 54

05.06.02 – ТЕХНОЛОГИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ПЕРВИЧНАЯ ОБРАБОТКА СЫРЬЯ

Салохиддинова Махлиё Нурмухаммад кизи, Косимов Ахтам Акрамович

Планирование и оптимизация экспериментов по процессу воздухоотделения при транспортировке хлопка 70

05.06.04 – ТЕХНОЛОГИЯ ШВЕЙНЫХ ИЗДЕЛИЙ И ДИЗАЙН КОСТЮМА

Норбоева Гуласал Нарзуллаевна

Разработка рекомендаций по конструированию спецодежды нового ассортимента для работников автомобильной промышленности 85

Орзикулова Гавхархон Султанмурод кизи, Расулова Мастура Кабиловна

Экспертная оценка исследования свойств материалов, применяемых для адаптивной ортопедической детской одежды 94

05.09.07 – ГИДРАВЛИКА И ИНЖЕНЕРНАЯ ГИДРОЛОГИЯ

Арифжанов Айбек Мухамеджанович, Самиев Лукмон Найимович, Хошимов Сардорбек Неъматжон угли, Улашов Кудратилла Чори угли

Проведение полевых исследований дренажа водохранилища 103



**MINISTRY OF
HIGHER EDUCATION,
SCIENCE AND
INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN**

Founder:

**Center for Scientific
and Technical
Information under
the Agency
for Innovative
Development**

**Scientific and
technical journal
"SCIENCE AND
INNOVATIVE
DEVELOPMENT"**

Volume 7 / 5-2024

**The journal has been
being published since
2018**

The journal was
registered with the
Press and Information
Agency of Uzbekistan
on May 28, 2018,
under No. 0974 for
periodicals.

The publication is on
the list of scientific
editions recommended
for publication in
technical sciences
by Higher Attestation
Commission of the
Republic of Uzbekistan.

Direktor:
S.J. Nazirov

Editor in chief:
Kh.R. Saloeva

Editors:
F.A. Muhammadiyeva
E.A. Yarmolik
M. Kamalova

CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,
DSc (Tech), Professor, Minister of Higher
Education, Science and Innovation
of the Republic of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Salimov Okil Umurzokovich,
DSc (Tech), Professor, Academician, Head of
"Ulugbek" Foundation for Support of Talented
Youth

Karimov Komiljon Khamidovich,
PhD (Pedagogy), Rector of Westminster
International University in Tashkent

Turdikulova Shakhlohon Utkurovna,
DSc (Biology), Professor, Vice-President of
the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

Rajabbaev Sharof Rakhimberdievich,
PhD (Economy), Director of the Agency for
Innovative Development of the Ministry of Higher
Education, Science and Innovations
of the Republic of Uzbekistan

Musaev Jakhongir Payazovich,
DSc (Pedagogy), Professor, Deputy Head
of the Department of Science and Innovative
Development of the Ministry of Higher Education,
Science and Innovations of the Republic
of Uzbekistan

Experts from Uzbekistan

Sagdullaev Shomansur Shokhsaidovich,
DSc (Tech), Professor, Academician, Director of
the Institute of the Chemistry of Plant Substances,
Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

Turakhodjaev Nodir Jakhongirovich,
DSc (Tech), Professor, Head of the Foundry
Technologies Department of the Tashkent State
Technical University

Jumaniyazov Kadam,
DSc (Tech), Professor, First Deputy General
Director for Research and Innovations, Scientific
Center of Cotton Industry JSC

Matyakubova Parakhat Maylievna,
DSc (Tech), Professor, Head of the Department of
Metrology, Technical Regulation, Standardization
and Certification of Tashkent State Technical
University

Toirov Olimjon Zuvurovich,
DSc (Tech), Professor, Head of the Department of
"Electrical Machines" of Tashkent State Technical
University

Akhatov Akmal Rustamovich,
DSc (Tech), Professor, Vice-Rector for International
Cooperation affairs, Samarkand State University
named after Sh. Rashidov.

Jumaeva Dilnoza Juraevna,
DSc (Tech), Professor, Chief Scientific Associate
of the Institute of General and Inorganic Chemistry,
Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

Matkarimov Sokhibjon Turdalievich,
DSc (Tech), Professor, Head of Laboratory "Mining
and Deep Processing of Mineral Resources"
Uzbek-Japan Innovation Center of Youth

Akhmedov Jakhongir Adkhamovich,
DSc (Tech), Professor, Department "Silk
Technology" of Tashkent Institute of Textile and
Light Industry

Kayumov Juramirza Abdirammatovich,
DSc (Tech), Professor, Advisor to the Rector of
Samarkand State University of Architecture and
Construction

Primova Kholida Anorboevna
DSc (Tech), Professor, Department of Information
Technology Samarkand Branch of the University
of Tashkent Information Technologies named after
Muhammad al-Khwarizmi.

Foreign experts

Murzin Dmitry Yurievich,
DSc (Chemistry), Professor, Head of the
Laboratory of Industrial Chemistry and Reaction
Technology at the Faculty of Chemical Technology,
Abo Academy University, Turku (Finland)

Parmon Valentin Nikolaevich,
DSc (Chemistry), Professor, Chairman of the
Siberian Branch of the Russian Academy of
Sciences

Akhmetova Irina Gareevna,
DSc (Tech), Professor, Vice-Rector for
Development and Innovations, Kazan State Power
Engineering University (Russia)

Nikolaeva Larisa Andreevna,
DSc (Tech), Professor, Head of the Department
"Engineering Ecology and Labor Safety", Kazan
State Power Engineering University (Russia)

Yusupov Ziyodulla Erkinovich,
DSc (Tech), Professor, Karabuk University (Turkey)

Ryklin Dmitry Borisovich,
DSc (Tech), Professor, Head of the Department
"Technology of Textile Materials", Vitebsk State
Technological University (Belarus)

Kuznetsova Tatyana Fedorovna,
PhD (Chemistry), Associate Professor, Head of
the Laboratory of Adsorbents and Adsorption
Processes, Institute of General and Inorganic
Chemistry, National Academy of Sciences
of Belarus

Hafeezulloh Memon,
PhD (Tech), Zhejiang University of Science and
Technology (China)

CONTENTS

05.01.08 – AUTOMATION AND MANAGEMENT OF TECHNOLOGICAL PROCESSES AND PRODUCTION

Rejabov Sarvar Abdurasulovich, Usmonov Botir Shukurillaevich, Usmanov Komil Isroilovich, Artikov Askar Askarovich

Predicting temperature dynamics of indirect solar dryers based on fuzzy logic 8

05.02.02 – THEORY OF MECHANISMS AND MACHINES. THEORETICAL ENGINEERING AND MACHINE ELEMENTS

Shakhobutdinov Rustam Erkinbaevich, Karimova Anorgul Ruzimovna, Nosirov Tulkin Narzulla ugli

Application of multi-pass ball rolling rolls in manufacture of steel grinding balls 19

05.02.03 – TECHNOLOGICAL MACHINES. ROBOTS, MECHATRONICS AND ROBOTICS SYSTEMS

Kirgizov Madyor Uktamali ugli, Rakhimov Fayzullo Khusanboy ugli, Muradov Rustam Muradovich

Determination of optimal parameters ensuring efficient operation of a cotton ginner 30

05.05.06 – POWER-PLANTS ON THE BASIS OF RENEWABLE ENERGY

Umarov Sardor Fotikhovich

Experimental studies of temperature and humidity conditions inside the solar device for mulberry silkworm cocoons pickling 41

05.05.08 – ELECTRONICS

Khamzaev Dilshod Inomdjonovich

Study of the influence of humidity and ambient temperature on the range of the RFID technology system 54

05.06.02 – TECHNOLOGY OF TEXTILE MATERIALS AND INITIAL TREATMENT OF RAW MATERIALS

Salokhiddinova Mahliyo Nurmuhammad kizi, Kosimov Akhtam Akramovich

Planning and optimization of experiments on the process of air separation during cotton transportation 70

05.06.04 – TECHNOLOGY OF GARMENTS AND DESIGN OF SUIT

Norboeva Gulasal Narzullaevna

Development of recommendations on designing of new assortment of overalls for workers of automobile industry 85

Orzikulova Gavkharkhon Sultanmurod kizi, Rasulova Mastura Kabilovna

Expert evaluation of the study of the properties of materials used for adaptive orthopedic children's clothing 94

05.09.07 – HYDRAULICS AND ENGINEERING HYDROLOGY

Arifzhanov Aibek Mukhamedjanovich, Samiev Lukmon Nayimovich, Khoshimov Sardorbek Nematjon ugli, Ulashov Kudratilla Chori ugli

Field studies of reservoir drainage 103

UDC: 681.518.25(045)(575.1)
EDN: <https://elibrary.ru/giyvcp>

NOQAT'IY MANTIQ ASOSIDA BILVOSITA QUYOSH QURITGICHLARINING HARORAT DINAMIKASINI BASHORAT QILISH

Rejabov Sarvar Abdurasulovich¹, Usmonov Botir Shukurillayevich²,
Usmanov Komil Isroilovich³, Artikov Asqar Asqarovich⁴

¹tayanch doktorant
ORCID: 0000-0001-8491-4122
e-mail: sarvar.rejabov7790@gmail.com

²rektor
ORCID: 0000-0002-4654-9782
e-mail: rector@tkti.uz

³"Avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv" kafedrası mudiri
ORCID: 0000-0002-6400-1200
e-mail: fuzzylogicrules@gmail.com

⁴professor
ORCID: 0009-0007-3874-7096
e-mail: a.artikov@tkti.uz

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Annotatsiya. O'zgaruvchan ob-havo sharoitida ishlaydigan bilvosita quyosh quritgichlarida mahsulotlarni quritish jarayoni murakkab nochiziqli tizim hisoblanadi. Ushbu turdagi quritgichlar samaradorligini aniqlash, tahlil qilish va kelgusidagi ish faoliyatini bashorat qilish uchun tizimni modellashtirish dolzarbdir. Modellashtirish quritish jarayonining murakkab dinamikasini hisobga olgan holda, optimallashtirishga yordam beradi. Quritish kamerasidagi haroratni bashorat qilish quritish jarayoni samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Haroratni nazorat qilish mahsulotning namlik darajasini samarali kamaytirish bilan birga uning oziqaviy xususiyatlarini maksimal darajada saqlash imkonini beradi. Shu sababli harorat qiymatlarini oldindan aniq bashorat qilish quritish jarayonida mahsulot sifatini yaxshilash va jarayonni yanada samarali qilish uchun zaruriy shartdir. Ushbu maqolada turli ob-havo sharoitlari uchun o'rganilgan quritgichda bir qator eksperimental tajribalar o'tkazilib, uning statik va dinamik xususiyatlari o'rganildi. Tajriba natijalari asosida Mamdani usulidan foydalangan holda, tegishlilik funksiyalari shakllantirilgan va xulosa chiqarish mexanizmining qoidalar bazasi ishlab chiqilgan. Mamdani algoritmi modeli o'qitilganda, quyosh radiatsiyasi 700 W/m^2 va tashqi muhit harorat 46°C bo'lganda, quritish kamerasidagi harorat $50,9^\circ\text{C}$ hamda quyosh radiatsiyasi 750 W/m^2 ga tenglashganda, tashqi harorat 50°C atrofida bo'lganda, quritish kamerasidagi harorat 52°C ga teng bo'lishi aniq bashorat qilindi. Bu esa tajriba natijalari bilan to'liq mos keladi. Taklif etilayotgan modelning aniqligi o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE) $0,38^\circ\text{C}$, o'rtacha kvadratik xatolik foizi (RMSE %) $0,82\%$ ekanligini ko'rsatdi. Bu usul orqali kelajakda quyosh quritgichlarining avtomatik rostdlash tizimlarini yaratish va quritish texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyati oshadi.

Kalit so'zlar: quyosh radiatsiyasi, tabiiy konveksiyali quritgich, Mamdani algoritmi modeli, noqat'iy mantiq, modellashtirish, bashoratlash.

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ДИНАМИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ КОСВЕННЫХ СОЛНЕЧНЫХ СУШИЛОК НА ОСНОВЕ НЕЧЁТКОЙ ЛОГИКИ

Режабов Сарвар Абдурасулович¹, Усмонов Ботир Шукуриллаевич²,
Усманов Комил Исроилович³, Артиков Аскар Аскарович⁴

¹базовый докторант

²ректор

³заведующий кафедрой
«Автоматизация и
цифровое управление»

⁴профессор

Ташкентский химико-
технологический институт

Аннотация. Процесс сушки продуктов в косвенных солнечных сушилках, работающих в условиях изменяющихся погодных условий, представляет собой сложную нелинейную систему. Моделирование таких систем имеет важное значение для определения их эффективности, анализа и прогнозирования работы сушилок в будущем. Моделирование помогает оптимизировать процесс сушки, учитывая сложную динамику системы. Прогнозирование динамики температуры в камере сушки играет важную роль в повышении эффективности процесса сушки и улучшении качества продукции. Контроль температуры позволяет максимально сохранить питательные свойства продукта, эффективно снижая уровень его влажности. По этой причине предварительное точное прогнозирование температурных значений является необходимым условием для улучшения качества продукта в процессе сушки и повышения эффективности процесса. В этой статье был проведён ряд экспериментов на косвенной сушилке для различных погодных условий,

изучены её статические и динамические свойства. На основе результатов эксперимента с использованием метода Мамдани были сформированы относительная функция и разработана база правил механизма вывода. При обучении модели по алгоритму Мамдани было точно спрогнозировано, что при солнечной радиации 700 W/m^2 и температуре окружающей среды 46°C температура в камере сушки составит $50,9^\circ\text{C}$, а при солнечной радиации 750 W/m^2 и температуре окружающей среды около 50°C температура в камере достигнет 52°C , что полностью соответствует экспериментальным данным. Точность предлагаемой модели показала, что среднеквадратичная ошибка (RMSE) составила $0,38^\circ\text{C}$, а процент среднеквадратичной ошибки (RMSE %) – $0,82\%$. Этот метод открывает возможности для создания автоматических систем регулирования в солнечных сушилках и совершенствования технологий сушки в будущем.

Ключевые слова: солнечное излучение, естественная конвекция сушилки, модель алгоритма Мамдани, нечёткая логика, моделирование, прогнозирование.

PREDICTING TEMPERATURE DYNAMICS OF INDIRECT SOLAR DRYERS BASED ON FUZZY LOGIC

Rejabov Sarvar Abdurasulovich¹, Usmonov Botir Shukurillaevich², Usmanov Komil Isroilovich³, Artikov Askar Askarovich⁴

¹Basic Doctoral Student

²Rector

³Head of Department of Automation and Digital Control

⁴Professor

Tashkent Institute of Chemical Technology

Abstract. The drying process in indirect solar dryers operating under changing weather conditions represents a complex nonlinear system. Modeling these types of dryers is essential for determining their efficiency, analyzing performance, and predicting future operations. Modeling helps optimize the drying process by accounting for the complex dynamics involved. Predicting the temperature in the drying chamber is considered crucial for improving the efficiency of the drying process and enhancing product quality. Temperature control enables effective reduction of product moisture while preserving its nutritional properties. Therefore, accurate forecasting of temperature values in advance is a required prerequisite for improving the quality of the product during the drying process and increasing its overall efficiency. In this article, a series of experimental tests were conducted on the dryer under various weather conditions, and its static and dynamic characteristics were examined. Based on the experimental findings, membership functions were formed using the Mamdani method, and a rule base for the inference mechanism was developed. When the Mamdani algorithm model was trained, it was accurately predicted that with solar radiation at 700 W/m^2 and ambient temperature at 46°C , the drying chamber temperature would be 50.9°C . Similarly, when solar radiation was 750 W/m^2 and the ambient temperature was around 50°C , the drying chamber temperature would reach 52°C , which fully corresponds to the experimental results. Accuracy of the proposed model demonstrated that the root mean square error (RMSE) was 0.38°C , and the percentage of the root mean square error (RMSE %) was 0.82% . This method paves the way for the future development of automatic control systems for solar dryers and further advancements in drying technologies.

Keywords: solar radiation, natural convection dryer, mamdani algorithm model, fuzzy logic, modeling, prediction.

Kelib tushgan/Получено/
Received: 25.09.2024

Qabul qilingan/Принято/
Accepted: 11.10.2024

Nashr etilgan/
Опубликовано/Published:
31.10.2024

Kirish

Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, mevalar, dorivor o'simliklar va sabzavotlar turli xil vitaminlar va minerallarga juda boy bo'lib, ular inson ratsionining asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning ko'pchiligi taxminan 90% suvdan iborat bo'lib, bu ularning tez buzilishiga olib keladi va saqlashni murakkablashtiradi (Deng et al., 2021). Shuning uchun bunday mahsulotlarni uzoq muddatli saqlash uchun quritish texnologiyalari keng qo'llanadi. Quritish jarayoni mahsulotlardagi namlikni kamaytirish orqali ularning

saqlanish muddatini uzaytiradi va foydali xususiyatlarini saqlab qolishga yordam beradi. Shu sababli quritish texnologiyasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mahsulotlar sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi (Madhankumar et al., 2023).

Bugungi kunda quritilgan oziq-ovqat mahsulotlarining 80 %dan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik fermerlar tomonidan ishlab chiqariladi (López-Vidaña et al., 2013). Shu boisdan ushbu fermerlar, odatda, mustaqil energiya manbalariga asoslangan arzon va oson texnik xizmat ko'rsatishni talab qiluvchi qishloq xo'jaligi uskunalariga ehtiyoj sezadi. Yuqori namlikka ega mahsulotlarni quritish jarayoni ko'p miqdorda energiya iste'moli talab qilganligi sababli mavjud va arzon energiya manbalaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqbul yechim sifatida ko'rilmogda. Bu yondashuv nafaqat energiya sarfini kamaytirish, balki ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi (Lamidi et al., 2019).

To'g'ridan to'g'ri quyoshda quritish jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun istiqbolli muqobil texnologik jarayon sifatida e'tirof etilmogda. Bu usul fermerlar tomonidan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quyosh nurlarida va tabiiy shamolning konvektiv kuchidan foydalanib quritishda keng qo'llanadi. Shuningdek, ushbu qurilmalarni mobil tarzda konstruksiyalash imkoniyati mavjudligi bois dala sharoitida qulay iqlim muhitida ishlatish mumkin. Ushbu usulning afzalligi uning arzonligi va oddiyligi bilan bog'liq bo'lsa ham, ob-havo sharoitlariga bog'liqligi tufayli mahsulotning quritish sifati pasayishi mumkin. Buning natijasida mahsulotlar chang, yomg'ir, hasharotlar va mikroorganizmlar kabi tashqi omillarga duch keladi. Natijada quritilayotgan mahsulot sifati yomonlashadi va quritish murakkablashadi (Belessiotis & Delyannis, 2011). Shunga qaramay to'g'ridan to'g'ri quyoshda quritish jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun eng maqbul yechim sifatida qolmogda. Biroq bu jarayonni yaxshilash zarurati mavjud, chunki sifatli va samarali quritish, oziq-ovqat xavfsizligi va ularning saqlanish muddatini uzaytirish muhim ahamiyatga ega. Optimal quritish sharoitlarini ta'minlash uchun texnologik yondashuvlar, shu jumladan, mexanik va energetik resurslarni yaxshilash zarur (Bala & Woods, 1995).

Quritish jarayoni mahsulotga berilayotgan issiq havo o'rtasida suv-havo almashinuvi orqali sodir bo'ladi. Bilvosita quyosh quritgichi quritilgan mahsulotning ozuqaviy tarkibi va rangi saqlanishiga yordam beradi, shu bilan birga, chang va hasharotlar kabi zararli omillardan ham himoya qiladi. Bilvosita quyosh quritgichida quritish mahsulot sifatini oshirish va quritish jarayoni samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega (Ho et al., 2011).

Iqlim sharoitlari va quyosh radiatsiyasi o'zgarishi ta'sirida quritish kamerasidagi harorat o'zgaradi. Quritish kamerasidagi harorat quritish tezligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi asosiy parametr hisoblanadi. Quritish jarayonini modellashtirish quritish haroratini baholash va quritgichning gidrotermal parametrlari, masalan, quyosh nurlanishi, atrof-muhit harorati va havo oqimining ta'sirini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Quritgichning ishlash samaradorligini baholash uchun quritish kamerasiga mahsulot yuklangan va yuksiz holatlarda ikki xil tajriba o'tkazish zarur. Yuksiz holatdagi modellashtirish quritgichning issiqlik xatti-harakatini ko'rsatadi.

Noqat'iy mantiq asosida modellashtirish Zoda tomonidan birinchi marta joriy etilganidan buyon sezilarli darajada rivojlandi va turli sohalarida qo'llana boshladi (Zadeh, 1965). Noqat'iy mantiq asosida jarayonni modellashtirishning afzalligi tizim nochiziqli yoki kirish parametrlari o'zgaruvchan bo'lganligiga qaramasdan, natijalarni aniq bashorat qilish imkonini berishidadir.

Mazkur sohada xalqaro tadqiqotchilar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Mohammadi va boshqalar yarim quyosh issiqxonasi muhitini adaptiv, teskari

aloqa va intellektual modellashtirish usullarini taklif qilgan (Mohammadi et al., 2018). Hamdi va boshqalar tomonidan esa issiqxonada uzumni quritish tizimini tegishli sharoitlarda simulyatsiya qilish uchun TRNSYS dasturida matematik model ishlab chiqilgan (Hamdi et al., 2018; Jain & Tiwari, 2004). Bundan tashqari, Zoukit va uning hamkasblari bilvosita aralash quyosh-elektr quritgichida dorivor o'simliklarni quritish uchun noqat'iy mantiq asosida modellashtirish, quritgichning turli rejimlarida simulyatsiyalar o'tkazib, jarayonni aniq boshqarish orqali mahsulotlarni uzoqroq saqlash va samaradorlikni oshirishga erishgan (Zoukit et al., 2019; Hernández & Quiñonez, 2018).

Prakash va Kumarlar issiqxona havo harorati, namlik bug'lanishini hisoblash hamda quyosh nurlanishi va atrof-muhit harorati asosida issiqxonaning issiqlik samaradorligini prognoz qilish uchun ANFIS modelini ishlab chiqishgan (Prakash & Kumar, 2014). Vafamand va boshqalar esa Takagi – Sugeno (TS) noqat'iy mantiq asosidagi modelida farqlanmaydigan tegishlilik funksiyalarini ko'rib chiqishgan va TS modellarining keng sinflari uchun onlayn parametr hisoblashni amalga oshirgan (Vafamand et al., 2018), (Simo-Tagne et al., 2018). Arslankaya ham jarayonlarni modellashtirishda adaptiv neyron noqat'iy boshqarish (ANFIS) va sun'iy neyron tarmoqlari (ANN) usullari orqali boshqarish hama bashoratlash bo'yicha ilmiy ishlar olib borishgan (Arslankaya, 2023). Prakash va boshqalar esa sun'iy neyron tarmoqlarini qo'llagan holda, quyosh nurlanishi, atrof-muhit harorati va nisbiy namlik kabi parametrlarni hisobga olib, quritilgan mahsulot massasini bashorat qilishga muvaffaq bo'lishgan (Prakash et al., 2015).

Mamlakatimiz olimlaridan Yusupbekov et al. (2014) ham intellektual boshqaruv (noqat'iy mantiq) tizimlari va qaror qabul qilish jarayonlarini tadqiq qilishga o'z ilmiy ishlarida katta e'tibor qaratishgan. Gulyamov (2018) va Mukhamedieva (2020) kabi tadqiqotchilar esa quritish jarayonida tabiiy hisoblash algoritmlaridan foydalangan holda, optimizatsiya masalalarini hal qilish yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Eshbobayev et al. (2024) ilmiy ishida noqat'iy mantiq xulosa chiqarish tizimiga asoslangan chiqindi suvlarni tozalash jarayonini boshqarish modeli ishlab chiqilgan. Sultonova et al. (2024) va Abduvaxitovna & Isroilovich (2024) noqat'iy mantiqning qo'llanishi, tizimning murakkabligi va noaniqliklarini hisobga olish orqali quritish jarayonini yaxshilash imkoniyatlarini ochib berishgan.

Oldingi tadqiqotlarimizda quyosh quritgichida o'rikdan yuqori sifatli turshak, bargak (qaysa) va kuraga tayyorlash jarayoni tahlil qilingan, shuningdek, quritish vaqtining havo sarfi va haroratga bog'liqligi o'rganilgan (Rejabov et al., 2024). O'riklarni ochiq quyoshda quritish va bilvosita tabiiy konveksiya asosidagi quyosh quritgichi yordamida quritish vaqtlari mahsulot namligi va quritish jarayonida o'rik rangidagi o'zgarishlarni solishtirish va baholashga qaratilgan (Rejabov et al., 2024). Lekin mahsulotlarni quritish jarayonlarini modellashtirish va boshqarish tizimini ishlab chiqishda noqat'iy mantiq usuli qo'llanishi bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari mavjud emas. Mamdani algoritmi usuli orqali bilvosita quyosh quritgichlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (masalan, o'rik) quritish jarayonida haroratni bashorat qilish modeli ishlab chiqilmagan. Bu esa ushbu yo'nalishda yanada chuqur tadqiqot olib borish va yangi ilmiy yondashuvlar joriy etishni talab etadi.


Ushbu ishda yuklanmagan sharoitda ishlaydigan bilvosita quyosh quritgichini modellashtirishda Mamdani algoritmi usulidan foydalanilgan. Taklif etilgan Mamdani algoritmi tabiiy konveksiya sharoitida bilvosita quyosh quritgichining termodinamik xarakteristikalarini aniq bashorat qilishga xizmat qiladi. Bunday Mamdani algoritmi "if-then" qoidalar to'plami orqali tasvirlanadi. Har bir qoida tizimning nochiziqli kirish-chiqish munosabatlarini ifodalaydi. Noqat'iy mantiq asosidagi model nochiziqli parametrlarni noqat'iy mantiq asosida tegishlilik funksiyalarini birlashtirish orqali hisoblashlarni amalga oshiradi.

Material va metodlar

O'zbekiston janubiy kenglikda joylashgani sababli yoz mavsumida bevosita quyosh nurlanishi ko'proq tushadi va bu jarayon uzoq davom etadi. Toshkent shahrida yil davomida quyosh nurlari o'rtacha 2900 soat davomida tarqaladi. Qarshi shahrining janubida esa bu ko'rsatkich 3100 soatni tashkil etadi. O'zbekiston iqlim sharoitida, asosan, ochiq va bulutli kunlar kam bo'lgani uchun (ayniqsa, maydan oktabrgacha) qishloq xo'jaligi mavsumida quyosh uzoq vaqt nur sochadi. Toshkentda yiliga 1749 soat, Qarshida esa 2012 soat quyosh nur sochishi kuzatilgan. Mamlakatda yil davomida 320 kundan ortiq quyoshli kunlar bo'lib, yillik o'rtacha quyosh radiatsiyasi 1400 dan 1800 kW/m² oralig'ida o'zgaradi va O'zbekistondagi ushbu boy quyosh energiyasi manbayidan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Tabiiy konveksiya asosida ishlaydigan quyosh quritgichi quyosh havoni isitish moslamasi va quritish kamerasidan iborat (1-rasm). Quyosh havoni isitish moslamasi 1,71 m² yuzaga ega bo'lgan tekis shisha plastinkadan iborat bo'lib, uning o'lchamlari 1,9 × 0,9 × 0,2 m. Isitish moslamasining ichki yuzasi quyosh nurlarini maksimal darajada yutish uchun qora bo'yoq bilan qoplangan. Quritish kamerasi 2 mm qalinlikdagi oddiy po'latdan yasalgan bo'lib, uning kengligi, chuqurligi va balandligi 0,7 × 0,9 × 0,5 m ni tashkil qiladi. Quritish kamerasining ichki qismi quritish uchun optimal sharoitlarni saqlash maqsadida 6 mm yog'och panellar bilan to'liq izolyatsiya qilingan. Ushbu quritish uskunasi kuniga 5 kg o'rikni quritishga mo'ljallangan. Quyosh nurlari shaffof shisha oyna orqali o'tib, uning ostidagi havoni isitadi. Isitilgan havo quritish kamerasiga oqib kiradi. Quyosh havoni isitish moslamasi O'zbekiston sharoitida yil davomida samarali ishlashi uchun gorizontga nisbatan 30° burchak ostida joylashtirilgan va quyosh nurlaridan maksimal foydalanish maqsadida janubga yo'naltirilgan.

HTC-2 raqamli termometr-gigrometri tizimdagi havo harorati va nisbiy namlikni o'lchash uchun qo'llangan. Ushbu qurilma bir vaqtning o'zida soat, signal hamda o'lchangan harorat va namlikning maksimal va minimal qiymatlarini yozib oluvchi xotira funksiyasiga ega. O'lchov natijalari katta o'lchamli LCD ekranda aks ettiriladi, bu esa oson va aniq kuzatish imkonini beradi. HTC-2 bir dona 1,5 V AAA batareyasi yordamida quvvatlanadi va u termogigrometr bilan birga taqdim etiladi.



1-rasm. Tabiiy konveksiyali quyosh quritgichining sxematik ko'rinishi

Tizimning chiqish xarakteristikalarini to'liq tahlil qilish uchun, avvalo, uning statik va dinamik xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Ushbu xususiyatlar turli quyosh radiatsiyasi va atrof-muhit harorati sharoitida quritish kamerasidagi haroratni o'lchash asosida aniqlanadi. Tajribalarni amalga oshirish uchun quritgich mahsulot yuklanmagan holda ochiq joyga, daraxtlar va binolar soyasidan uzoqroqqa joylashtirildi. Tajribalar ertalab 10:00 dan 17:00 gacha davom etgan, chunki bu vaqtda quyosh radiatsiyasi va atrof-muhit harorati nisbatan barqaror deb hisoblanadi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Quyosh radiatsiyasi va tashqi muhit haroratiga qarab quritish
kamerasidagi haroratning o'zgarishi**

Vaqt	10:00	11:00	12:00	13:00	14:00	15:00	16:00	17:00
Quyosh radiatsiyasi	538	620	673	700	705	683	646	584
Tashqi muhit harorati	39,4	42,2	44,3	45,7	41,1	39,2	40	41,6
Tashqi muhit namligi	22	20	18	17	17	16	16	17
Quritish kamerasi ichidagi harorat	42,9	45,8	48,5	50,4	51	48,8	47,6	46,9

Turli ob-havo sharoitlarida olib borilgan tajribalar zarur bo'lgan quyosh radiatsiyasi qiymatlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Harorat, atrof-muhit harorati va quyosh radiatsiyasi har soatda o'lchangan. Quritish kamerasidagi harorat tabiiy rejimda uchta nuqtasida o'lchangan. Tanlangan uchta nuqtadagi o'rtacha haroratlar orasida sezilarli farq aniqlanmadi (eng katta farq 1,4 °C bo'ldi). Shuning uchun modellashtirish jarayonida faqat quritish kamerasidagi harorat qiymati inobatga olinadi.

Quyosh quritgichi murakkab tizim bo'lib, ikkita kirish (quyosh radiatsiyasi, atrof-muhit harorati) va bitta chiqish (quritish kamerasi harorati) o'zgaruvchilariga ega. Har bir operatsion nuqtada quritgichni nochiziqli model orqali modellashtirish mumkin. Shunday qilib, quritgichni identifikatsiyalangan operatsion nuqtalar atrofida bir nechta nochiziqli modellardan foydalanib modellashtirish mumkin. Har qanday operatsion nuqtada mos nochiziqli modelni tanlash uchun Mamdani algoritmi interfeysi tizimi ishlatiladi.


Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Mamdani algoritmi modelini tadqiq qilinayotgan tabiiy konveksiyali quyosh quritgichining umumiy xarakteristikalarini modellashtirishda qo'llashdir. Mamdani tizimidan murakkab va noaniq tizimlarni ifodalashda keng foydalaniladi va u turli nochiziqli hamda noaniq modellarni birlashtirish orqali tizimning o'zgaruvchan xatti-harakatlarini aniqlashga yordam beradi. Noqat'iy mantiq asosidagi modelning har qanday ish sharoitida mos chiqish natijasini ta'minlash imkoni bo'ladi.

Mamdani algoritmi "if-then" qoidalari asosida quriladi va bu qoidalar tizimning kirish va chiqish ma'lumotlari hamda ayrim operatsion nuqtalarda nochiziqli modellar bo'yicha aniqlangan parametrlarni o'z ichiga oladi. Quyosh radiatsiyasi uchun yaratilgan tegishlilik funksiyalari quyosh nurlanishining yuqori va past qiymatlariga e'tibor qaratgan holda tuziladi, chunki bu qiymatlar tizimning yuqori noaniqlik ko'rsatadigan holatlarini aks ettiradi. Atrof-muhit harorati uchun mos tegishlilik funksiyalari tizimning ma'lum xatti-harakatlariga moslashtirilgan bo'lib, quritgich kamerasi ichidagi haroratga mos tegishlilik funksiyalari esa tizimning havo harakatiga bo'lgan sezgirligini ifodalaydi.

Mamdani algoritmi asosida qurilgan noqat'iy mantiq modelning chiqishi (quritish kamerasidagi harorat) tegishli nochiziqli va noaniq modellarga asoslangan holda baholanadi. Bu yondashuv tizimning murakkab o'zaro ta'sirlarini hisobga olgan holda, quritgich samaradorligi va uning dinamik jarayonlarini modellashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari


Matlab R2014a dasturida Mamdani algoritmi interfeysi tanlanib, modelda ishtirok etadigan kirish (quyosh radiatsiyasi, tashqi muhit harorati) va chiqish (quritish kamerasi ichidagi harorat) o'zgaruvchilari belgilab olindi (2-rasm). Kirish o'zgaruvchilari tizimga ta'sir qiluvchi faktorlar bo'lsa, chiqish o'zgaruvchilari tizimning natijalarini ifodalaydi (Sidikov et al., 2020).



2-rasm. Mamdani algoritmi interfeysi ko'rinishi

Har bir kirish va chiqish o'zgaruvchisi uchun noaniq mantiq qoidalari ishlab chiqildi. Quyosh radiatsiyasi uchun toifalar quyidagicha belgilangan: "eng past", "pastroq", "o'rtacha", "yuqoriroq" va "eng yuqori". Tashqi muhit harorati esa "sovuq", "iliq", va "issiq" kabi toifalarga ajratilgan. Quritish kamerasi harorati uchun esa "past harorat (T1)", "pastroq harorat (T2)", "o'rtacha harorat (T3)", "yuqoriroq harorat (T4)" va "eng yuqori harorat (T5)" toifalari aniqlangan.

Ushbu qoidalarga asoslangan holda, har bir toifa uchun mos tegishlilik funksiyalari (membership functions) ishlab chiqilgan (3-rasm). Tegishlilik funksiyalari tizimning noqat'iy mantiq o'zgaruvchilarini aniqlash va noaniqlikni aniqlik bilan modellashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv tizimning noaniq va nochiziqli xatti-harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi.




3-rasm. Quyosh radiatsiyasi (a), tashqi muhit harorati (b) va quritish kamera ichidagi haroratlar (c) uchun noqat'iy xulosalar tizimining tegishlilik funksiyalari ko'rinishi

Belgilashlar yordamida tegishlilik funksiyalari ishlab chiqilgandan so'ng tajriba natijalaridan foydalangan holda, xulosa chiqarish mexanizmi uchun qoidalar bazasi yaratildi.


1. If (Radiatsiya is eng_past) and (Tashqitemp is sovuq) then (Kameratemp is T1).
2. If (Radiatsiya is eng_past) and (Tashqitemp is iliq) then (Kameratemp is T2).
3. If (Radiatsiya is eng_past) and (Tashqitemp is issiq) then (Kameratemp is T2).
4. If (Radiatsiya is pastroq) and (Tashqitemp is sovuq) then (Kameratemp is T2).
5. If (Radiatsiya is pastroq) and (Tashqitemp is iliq) then (Kameratemp is T3).
6. If (Radiatsiya is pastroq) and (Tashqitemp is issiq) then (Kameratemp is T3).
7. If (Radiatsiya is ortacha) and (Tashqitemp is sovuq) then (Kameratemp is T2).
8. If (Radiatsiya is ortacha) and (Tashqitemp is iliq) then (Kameratemp is T3).
9. If (Radiatsiya is ortacha) and (Tashqitemp is issiq) then (Kameratemp is T4).
10. If (Radiatsiya is yuqoriroq) and (Tashqitemp is sovuq) then (Kameratemp is T3).
11. If (Radiatsiya is yuqoriroq) and (Tashqitemp is iliq) then (Kameratemp is T4).
12. If (Radiatsiya is yuqoriroq) and (Tashqitemp is issiq) then (Kameratemp is T5).
13. If (Radiatsiya is eng_yuqori) and (Tashqitemp is sovuq) then (Kameratemp is T3).
14. If (Radiatsiya is eng_yuqori) and (Tashqitemp is iliq) then (Kameratemp is T5).
15. If (Radiatsiya is eng_yuqori) and (Tashqitemp is issiq) then (Kameratemp is T5).

Tabiiy konveksiya sharoitlarida quritish kamerasidagi harorat qiymatlarini bashoratlash uchun 15 ta noqat'iy mantiq qoidalar (*if-then*) to'plami yaratildi (4-rasm). Ushbu modelda Mamdani usulidan foydalangan holda, tegishlilik funksiyalari shakllantirildi va xulosa chiqarish mexanizmi qoidalar bazasidan foydalanib o'qitildi.



4-rasm. Noqat'iy qoidalar bazasi oynasi

Mamdani algoritmi modelida natijalar noqat'iy mantiq qoidalar to'plami asosida hisoblanadi. Noqat'iy mantiq natijalarni aniq qiymatlarga aylantirish uchun defuzzifikatsiya jarayoni qo'llanadi. Bu jarayon noqat'iy mantiq natijalarini o'lchash va aniq chiqish qiymatini olish uchun kerak.



5-rasm. Noqat'iy xulosalar tizimining mantiqiy qoidalari (a)
va uch o'lchovli sirt grafik (b) interfeysi

Modelda quyosh radiatsiyasi, tashqi muhit harorati parametrlarining o'zgarishi bilan quritish kamerasidagi haroratning o'zgarish dinamikasi hisoblab chiqilgan. 5b-rasmda uch o'lchovli sirt diagrammasi, ushbu uchta omilning o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan, ya'ni quyosh radiatsiyasi va tashqi muhit haroratining oshishi quritish kamerasidagi haroratga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani keltirilgan. 2-jadvalda Mamdani modeli orqali bashorat qilingan quritish kamerasi haroratining qiymatlari berilgan. Quyosh radiatsiyasi va tashqi muhit omillari asosida yaratilgan quritgich modelini tajriba natijalari bilan taqqoslash jarayoni modelning aniqlik darajasi va amaliyotda qo'llanishi mumkinligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

Mamdani modeli orqali bashorat qilingan quritish kamerasidagi
haroratning qiymatlari

Quyosh radiatsiyasi		538	620	673	700	705	683	646	584
Tashqi muhit harorati		39,4	42,2	44,3	45,7	41,1	39,2	40	41,6
Quritish kamerasidagi harorat	Tajriba orqali olingan natijalar	42,5	45,8	48,5	50,4	51	48,8	47,6	46,9
	Mamdani modeli natijalari	42,9	46,3	49	50,8	50,7	48,7	47,1	46,7

Quyosh radiatsiyasi 750 W/m^2 ga yetganda va tashqi harorat 50°C atrofida bo'lganda, kameradagi harorat 52°C ga yaqinlashmoqda, bu quritish jarayonini optimallashtiradi. 5a-rasmda ko'rsatilgan qoidalarga asoslangan mantiqiy model ham xuddi shu parametrlar bo'yicha kameradagi harorat qiymatini bashorat qiladi. Ushbu natijalarni real tajriba o'lchovlari bilan solishtirganda, ma'lum bir moslik mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, tajriba davomida 700 W/m^2 radiatsiya va 46°C tashqi harorat sharoitida kameradagi harorat 50.9°C ga yetgan, bu modelning bashoratiga juda yaqin natija hisoblanadi. Quritgich modeli tajriba natijalari bilan yuqori darajada mos keldi. Ayniqsa, quyosh radiatsiyasi va tashqi muhit haroratining yuqori qiymatlarida model aniq natijalar beradi. Bu esa modelning amaliy sharoitda ishlatishga yaroqli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu modelning quritish jarayonini oldindan baholash va boshqarishda samarali ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan model orqali optimal quritish sharoitlarini aniqlash va energiya sarfini kamaytirishga erishish mumkin. Modelning aniqligi o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE) $0,38^\circ\text{C}$, o'rtacha kvadratik xatolik foizi (RMSE %) $0,82\%$ ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan noqat'iy mantiqning xulosalash modeli qurilmaning ishlashini qisqa vaqt ichida

yuqori aniqlikda bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa ushbu bashoratlash usulining boshqa klassik usullariga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda tabiiy konveksiya rejimida ishlaydigan quyosh quritgichining prototipi modellashtirilib, uning statik va dinamik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tizimning quyosh radiatsiyasi va atrof-muhit harorati kabi parametrlarning kombinatsiyalariga sezgir ekanligini ko'rsatdi. Noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida noqat'iy mantiq asosida Mamdani algoritmi modeli qo'llandi. Ushbu yondashuv quyosh quritgichining turli ob-havo sharoitlaridagi xatti-harakatlarini aniq bashorat qilish imkonini berdi.

Mamdani modeli, xususan, 700 W/m^2 radiatsiya va 46°C tashqi harorat sharoitida kameradagi haroratni $50,9^\circ\text{C}$ deb aniq bashorat qildi, bu tajriba natijalari bilan mos keladi. Quyosh radiatsiyasi 750 W/m^2 ga yetib, tashqi harorat 50°C atrofida bo'lganda, kameradagi harorat 52°C ga yetishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, modelning aniqligi o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE) $0,38^\circ\text{C}$, RMSE % $0,82\%$ ni tashkil etgani aniqlandi. Shuningdek, Mamdani algoritmi quritish jarayonini tez simulyatsiya qilish, mahsulot uchun optimal quritish sharoitlarini aniqlash hamda energiya sarfini kamaytirishda samarali vosita sifatida o'zini namoyon etdi. Bu yondashuv quyosh quritgichlarida samarali nazorat tizimlarini yaratish va quritish texnologiyalarini takomillashtirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Abduvaxitovna, S. S., & Isroilovich, U. K. (2024). Dorivor o'simliklarni gelioquritish qurilmasida quritish jarayonini matematik modellashtirish [Mathematical modeling of the drying process of medicinal plants in a helio-drying device]. (In Uzbek). *Science and Innovative Development*, 7(4), Article 4.
2. Arslankaya, S. (2023). Comparison of performances of fuzzy logic and adaptive neuro-fuzzy inference system (ANFIS) for estimating employee labor loss. *Journal of Engineering Research*, 11 (4), 469–477. <https://doi.org/10.1016/j.jer.2023.100107>
3. Bala, B. K., & Woods, J. L. (1995). Optimization of natural-convection, solar drying systems. *Energy*, 20 (4), 285–294. [https://doi.org/10.1016/0360-5442\(94\)00083-F](https://doi.org/10.1016/0360-5442(94)00083-F)
4. Belessiotis, V., & Delyannis, E. (2011). Solar drying. *Solar Energy*, 85 (8), 1665–1691. <https://doi.org/10.1016/j.solener.2009.10.001>
5. Deng, Z., Li, M., Xing, T., Zhang, J., Wang, Y., & Zhang, Y. (2021). A literature research on the drying quality of agricultural products with using solar drying technologies. *Solar Energy*, (229), 69–83. <https://doi.org/10.1016/j.solener.2021.07.041>
6. Eshbobayev, J., Norkobilov, A., Usmanov, K., Khamidov, B., Kodirov, O., & Avezov, T. (2024). Control of Wastewater Treatment Processes Using a Fuzzy Logic Approach. *The 3rd International Electronic Conference on Processes* (p. 39). <https://doi.org/10.3390/engproc2024067039>
7. Gulyamov, Sh. M. (2018). Intelligent control technology, the reliability of the measuring information. *Chemical Technology, Control and Management*, 3, 128–131.
8. Hamdi, I., Kooli, S., Elkhadraoui, A., Azaizia, Z., Abdelhamid, F., & Guizani, A. (2018). Experimental study and numerical modeling for drying grapes under solar greenhouse. *Renewable Energy*, (127), 936–946. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2018.05.027>
9. Hernández, A. L., & Quiñonez, J. E. (2018). Experimental validation of an analytical model for performance estimation of natural convection solar air heating collectors. *Renewable Energy*, 117, 202–216. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2017.09.082>
10. Ho, C.-D., Yeh, H.-M., & Chen, T.-C. (2011). Collector efficiency of upward-type double-pass solar air heaters with fins attached. *International Communications in Heat and Mass Transfer*, 38 (1), 49–56. <https://doi.org/10.1016/j.icheatmasstransfer.2010.09.015>

11. Jain, D., & Tiwari, G. N. (2004). Effect of greenhouse on crop drying under natural and forced convection II. Thermal modeling and experimental validation. *Energy Conversion and Management*, 45 (17), 2777–2793. <https://doi.org/10.1016/j.enconman.2003.12.011>
12. Lamidi, R. O., Jiang, L., Pathare, P. B., Wang, Y. D., & Roskilly, A. P. (2019). Recent advances in sustainable drying of agricultural produce: A review. *Applied Energy*, (233–234), 367–385. <https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2018.10.044>
13. López-Vidaña, E. C., Méndez-Lagunas, L. L., & Rodríguez-Ramírez, J. (2013). Efficiency of a hybrid solar–gas dryer. *Solar Energy*, (93), 23–31. <https://doi.org/10.1016/j.solener.2013.01.027>
14. Madhankumar, S., Viswanathan, K., Taipabu, M. I., & Wu, W. (2023). A review on the latest developments in solar dryer technologies for food drying process. *Sustainable Energy Technologies and Assessments*, 58, 103298. <https://doi.org/10.1016/j.seta.2023.103298>
15. Mohammadi, B., Ranjbar, S. F., & Ajabshirchi, Y. (2018). Application of dynamic model to predict some inside environment variables in a semi-solar greenhouse. *Information Processing in Agriculture*, 5 (2), 279–288. <https://doi.org/10.1016/j.inpa.2018.01.001>
16. Mukhamedieva, D.T. (2020). Yechim optimizatsiya vazifalarini hal qilish yondashuvlari, tabiiy hisoblash algoritmlariga asoslangan [The solution is based on approaches to solving optimization tasks, natural computing algorithms]. (In Uzbek). *Scientific and Technical Journal*, 24 (2), 58–67.
17. Prakash, O., & Kumar, A. (2014). ANFIS modelling of a natural convection greenhouse drying system for jaggery: An experimental validation. *International Journal of Sustainable Energy*, 33 (2), 316–335. <https://doi.org/10.1080/14786451.2012.724070>
18. Prakash, O., Kumar, A., Kaviti, A. K., & Kumar, P. V. (2015). Prediction of the rate of moisture evaporation from jaggery in greenhouse drying using the fuzzy logic. *Heat Transfer Research*, 46 (10), 923–935. <https://doi.org/10.1615/HeatTrans Res.2015007463>
19. Rejabov, S., Usmonov, B., Usmanov, K., & Artikov, A. (2024). Experimental Comparison of Open Sun and Indirect Convection Solar Drying Methods for Apricots in Uzbekistan. *The 3rd International Electronic Conference on Processes* (p. 26). <https://doi.org/10.3390/engproc2024067026>
20. Rejabov, S. A., Usmonov, B. Sh., & Artiqov, A. A. (2024). O'rik mevasini majburiy konveksiyali quyosh quritgichida quritish vaqtini hisoblash [Calculation of the drying time of apricots in a forced convection solar dryer]. (In Uzbek). *Science and Innovative Development*, 7 (2), 48–60. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rik-mevasini-majburiy-konveksiyali-quyosh-quritgichida-quritish-vaqtini-hisoblash>
21. Sidikov, S. I., Usmanov, K. I., Yakubova, N. S., & Kazakhbayev, S. A. (2020). Nechetkoye sinergeticheskoye upravleniye nelineynykh sistem [Fuzzy synergetic control of nonlinear systems]. (In Russian). *Journal of Advances in Engineering Technology*, (2), 16–19. <https://doi.org/10.24412/2181-1431-2020-2-16-19>
22. Simo-Tagne, M., Zoulalian, A., Rémond, R., & Rogaume, Y. (2018). Mathematical modelling and numerical simulation of a simple solar dryer for tropical wood using a collector. *Applied Thermal Engineering*, (131), 356–369. <https://doi.org/10.1016/j.applthermaleng.2017.12.014>
23. Sultanova, S., Usmanov, K., Ungbayeva, D., & Tadjibayeva, D. (2024). Development of adaptive neural-fuzzy models for predicting solar dryer performance. *Universum: Technical Sciences*, 122 (5). <https://doi.org/10.32743/UniTech.2024.122.5.17503>
24. Vafamand, N., Arefi, M. M., & Khayatian, A. (2018). Nonlinear system identification based on Takagi-Sugeno fuzzy modeling and unscented Kalman filter. *ISA Transactions*, 74, 134–143. <https://doi.org/10.1016/j.isatra.2018.02.005>
25. Yusupbekov, N. R., Aliyev, R. A., Aliyev, R. R., & Yusupbekov, N. A. (2014). *Intellectualniy sistemalar boshqaruvi va qaror qabul qilish* [Management of intelligent systems and decision-making]. (P. 490). (In Uzbek). Tashkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.
26. Zadeh, L. A. (1965). Fuzzy sets. *Information and Control*, 8 (3), 338–353. [https://doi.org/10.1016/S0019-9958\(65\)90241-X](https://doi.org/10.1016/S0019-9958(65)90241-X)
27. Zoukit, A., El Ferouali, H., Salhi, I., Doubabi, S., & Abdenouri, N. (2019). Design of mamdani type fuzzy controller for a hybrid solar-electric dryer: Case study of clay drying. *2019 6th International Conference on Control, Decision and Information Technologies – CoDIT* (pp. 1332–1337). <https://doi.org/10.1109/CoDIT.2019.8820581>

UDC: 621.775.26(045)(575.1)
EDN: <https://elibrary.ru/hjnhlg>

MAYDALOVCHI PO'LAT ZOLDIRLAR ISHLAB CHIQRISHDA KO'P KIRIMLI ZOLDIR PROKATLASH VALOKLARIDAN FOYDALANISH

Shaxobutdinov Rustam Erkinbayevich¹, Karimova Anorgul Ruzimovna²,
Nosirov To'liqin Narzulla o'g'li³

¹texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD),
"Nazariy mexanika va mashi-
na va mexanizmlar nazariya-
si" kafedrası dotsenti
ORCID: 0009-0007-8666-8042
e-mail: rus-0373@mail.ru

²"Nazariy mexanika va
mashina va mexanizmlar
nazariyasi" kafedrası katta
o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-0668-3653
e-mail: kanorgul@gmail.com

³Zoldir prokatlash bo'limi
boshlig'i o'rinbosari
e-mail: t.nosirov@uzbeksteel.uz

^{1,2}Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika
universiteti

³"O'zmetkombinat" aksioner-
lik jamiyati

Annotatsiya. Ruda va ma'danlarni maydalash uchun qo'llanadigan maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshirish va zoldirlarning yeyilishbardoshligini yaxshilash masalasi muhim hisoblanadi. Bunda zoldirlarni prokatlashda qo'llanadigan ko'p kirimli zoldir prokatlash valoklari va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirish hamda resurs tejamkor texnologiyalar ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Zoldirlarni prokatlash usuli orqali ishlab chiqarish jarayonida energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash juda muhimdir. Zoldir prokatlashda ish unumdorligini oshirish maqsadida zoldir prokatlashda qo'llanadigan ko'p kirimli zoldir prokatlash valoklarini kesuvchi kulachokli mexanizmlar yaratish va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish masalasi muammoning yechimini aniqlashning eng qulay usuli sanaladi. Shu bilan birga, zoldir prokatlashda qo'llanadigan mexanizmlarning yangi konstruksiyalarini yaratish uchun ularni loyihalash va matematik modellarni ishlab chiqish zaruriy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada maydalovchi po'lat zoldirlarni issiqlayin prokatlash usuli orqali ishlab chiqarishning ish unumdorligini oshirish maqsadida ko'p kirimli zoldir prokatlash valoklaridan foydalanish masalasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarning nazariy yechimlari va amaliy sinov natijalari tahlili keltirilgan. Shuningdek, o'rganilayotgan masalaning yechimlarini aniqlash diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun olti kirimli zoldir prokatlash valoklaridan foydalanish va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining yangi konstruksiyasini yaratish orqali hal qilingan.

Kalit so'zlar: zoldir prokatlash stani, maydalovchi po'lat zoldir, chap va o'ng zoldir, prokatlash valoklari, kulachok, vintli kalibr, reborda, quyi va yuqori yo'naltiruvchi lineyka.

ПРИМЕНЕНИЕ МНОГОЗАХОДНЫХ ШАРОПРОКАТНЫХ ВАЛКОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ СТАЛЬНЫХ ПОМОЛЬНЫХ ШАРОВ

Шахобутдинов Рустам Эркинбаевич¹, Каримова Аноргул Рузимовна²,
Носиров Тулкин Нарзулла угли³

¹доктор философии по
техническим наукам (PhD),
доцент кафедры
«Теоретическая механика
и теория машин и
механизмов»

²старший преподаватель
кафедры «Теоретическая
механика и теория машин
и механизмов»

³заместитель начальника
шаропрокатного цеха

^{1,2}Ташкентский
государственный
технический университет
имени Ислама Каримова
³ЗАО «Узметкомбинат»

Аннотация. При производстве стальных помольных шаров, применяемых для дробления руд и минералов, важным является вопрос повышения производительности и повышения износостойкости шаров. Большое значение при этом имеет дальнейшее совершенствование рабочего процесса многозаходных шаропрокатных валков и направляющих линий шаропрокатных станков, применяемых при прокатке шаров, а также разработка ресурсосберегающих технологий. Очень важно применять энергоэффективные и ресурсосберегающие технологии в процессе производства шаров методом прокатки. С целью повышения производительности при прокатке шаров наиболее удобным способом решения поставленной задачи является вопрос о создании кулачковых механизмов, режущих многозаходные шаропрокатные валки, применяемые при прокатке шаров, и разработке новой конструкции направляющей линии шаропрокатного стана. При этом одной из необходимых задач является

проектирование и разработка математических моделей для создания новых конструкций механизмов, применяемых при прокатке шаров. В данной статье представлены решения по вопросу использования многозаходных шаропрокатных валков с целью повышения производительности стальных помольных шаров методом горячей прокатки, которые получены в результате теоретических научных исследований и практических испытаний. Кроме того, решение изучаемой задачи получено путём использования шестизаходных шаропрокатных валков для прокатки стальных помольных шаров диаметром 50 мм и создания новой конструкции направляющих линий шаропрокатного стана.

Ключевые слова: шаропрокатный стан, стальной помольный шар, правый и левый шаропрокатные валки, кулачок, винтовой калибр, реборда, верхняя и нижняя направляющие линии.

APPLICATION OF MULTI-PASS BALL ROLLING ROLLS IN MANUFACTURE OF STEEL GRINDING BALLS

Shakhobutdinov Rustam Erkinbaevich¹, Karimova Anorgul Ruzimovna², Nosirov Tulkin Narzulla ugli³

¹Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Theoretical Mechanics and Theory of Machines and Mechanisms

²Senior Lecturer of the Department of Theoretical Mechanics and Theory of Machines and Mechanisms

³Deputy Head of Ball Rolling Workshop

^{1,2}Tashkent State Technical University named after Islam Karimov;

³Uzmetkombinat JSC

Kelib tushgan/ Получено/ Received: 24.09.2024

Qabul qilangan/Принято/ Accepted: 09.10.2024

Nashr etilgan/ Опубликовано/ Published: 31.10.2024

Abstract. Increasing the productivity of the output and improving the wear resistance of steel grinding balls used for grinding of ores and minerals is an important task. In this regard, further improvement of the operational process of multi-pass ball rolling rolls and linear guides used in rolling of balls, as well as the development of resource-saving technologies, is being of great significance. It is crucial to utilize energy- and resource-efficient technologies in producing of balls by rolling. In order to enhance productivity of rolling of balls, creating cam mechanisms for cutting multi-pass ball rolling rolls and developing a new design for the linear guides of the ball rolling mill are regarded to be effective approaches to address the problem. In this regard, developing of mathematical models for creating new designs of mechanisms used in rolling balls appears to be one of the urgent tasks. This article presents theoretical solutions based on scientific research and analyses of findings from practical tests on the use of multi-pass ball rolling rolls in view of raising the productivity of steel grinding balls by means of hot rolling. Moreover, the solution to the studied problem was determined by using six-pass ball rolling rolls for rolling steel grinding balls with a diameter of 50mm as well as by creating a new design for ball rolling mill linear guides.

Keywords: ball rolling mill, grinding steel ball, right and left ball rolling rolls, cam, screw gauge, top and bottom linear guides.

Kirish

Respublikamizda ruda va kon mahsulotlarini maydalashda qo'llanadigan maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–307-son qarori 3-ilovasi 180-bandida keltirilgan "Yangi turdagi diametri 50 mm bo'lgan zoldir prokatini ishlab chiqarish uchun kalibr kesuvchi asbob konstruksiyasini yaratish va uni ishlab chiqarish" nomli ustuvor loyihasining bajarilishini ta'minlash maqsadida diametri katta bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan prokatlash stanida diametri kichik bo'lgan zoldirlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini yechish asosiy maqsad qilib olindi. Bu borada maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarish mavzusiga doir qator ilmiy va amaliy izlanishlar olib borildi. Xususan, "O'zmetkombinat" AJ ishlab chiqarish sharoitida olib borilayotgan amaliy ishlarni bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning natijasi sifatida ko'rish mumkin.

Ko'p kirimli vintli kalibrlardan foydalanib, issiqalayin prokatlash usuli bilan diametri 50 va 70 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni DSt 7524-2015 bo'yicha ishlab chiqarish "O'zmetkombinat" AJ ning zoldir prokatlash bo'linmasida yo'lga qo'yilgan va bu bo'yicha malaka sinovlari o'tkazilib, ijobiy natijalar olingan (Shakhobutdinov et al., 2024). Dastlab diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasi ZPS 40–80 stanida amalga oshirilgan va bunda uch kirimli zoldir prokatlash valoklaridan foydalanilgan. Hozirgi kunda diametri 50 mmli maydalovchi po'lat zoldirlarga bo'lgan talabning ortishi bilan ish unumdorligini yanada yaxshilash maqsadida kirimlar sonini ko'paytirish va bu jarayonni ZPS 80–120 stanida amalga oshirish rejalashtirildi. Chunki ko'p kirimli valoklardan foydalanish imkoniyati zoldir prokatlash stanlari mahsuldorligini yanada oshiradi.

Ma'lumki, ZPS 80–120 stani, asosan, diametri 80 dan 120 mm gacha bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan stan hisoblanadi. Lekin, shunga qaramasdan, ushbu standda kichik diametrdagi, ya'ni olti kirimli, diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash masalasining nazariy yechimlarini aniqlash va amaliy sinov tajribalarini o'tkazish asosiy vazifa qilib olindi. Ushbu masala bo'yicha Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida "O'zmetkombinat" AJ dagi mo'ljallangan loyihalardan biri bo'lgan "Yangi uslub – olti kirimli vintli kalibrlarni qo'llagan holda, DSt 7524-2015 bo'yicha Ø50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni ZPS 80–120 stanida ishlab chiqarishni o'zlashtirish" ("O'zmetkombinat" AJ, 2022–2024-yy.) mavzusida 6773-01/03-02-02/2022 raqamli xo'jalik shartnomasi tuzildi hamda ilmiy va amaliy izlanishlar olib borildi.

Zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarish eng samarali usullardan biri bo'lib, bu texnologiyaning amaliyotda qo'llanishi dastlab akademik Selikov et al. (1971) rahbarligida olib borilgan. Vintli kalibrli prokatlash usuli bilan ishlab chiqarish texnologiyasiga oid muhim masalalar Granovskiy (1980) tomonidan o'rganilgan. O'zgaruvchan qadamga ega vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini tayyorlash amaliyotini maxsus dastgohda bajarish ishlarini Kotyonok & Podobedov (2000; 2001) amalga oshirgan.

Zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarishning termomexanik tahlili (Zbignev et al., 2018) va ko'ndalang vintli prokatlash masalasi bo'yicha prokatlash valoklari uchun umumiy tavsiflar (Gorbatyuk et al., 2022) ishlab chiqilgan.

Zoldir prokatlashdagi kuchlanishlarni tahlil qilish masalasi ba'zi bir aniq hollar uchun o'rganilgan (Pretyatko et al., 2013; Filippova et al., 2017).

Zoldir prokatlash valoklarining kirimlari soni vintli kalibrning bir marta to'liq aylanishida hosil bo'ladigan zoldirlar soni bilan xarakterlanadi. Kirimlar sonining ko'pligi esa ish unumdorligining ortishi, ya'ni sarflanadigan vaqt mobaynida ko'proq zoldirlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

DSt 7425-2015 bo'yicha shartli diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlar uchun nominal diametr 52 mm qilib qabul qilingan (Specifications, 2016). Metall hajmining issiqlikdan kengayishi va sovitilganda, qisqarishini inobatga olgan holda, nominal diametrdan og'ish chegarasining hisobiga ko'ra, kalibrning aniq diametri 52,3 mm deb qabul qilindi.

Amaliy ishlarni olib borish davomida kalibrlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar asosida aniq o'lchamlar bo'yicha tayyorlangan zoldir prokatlash valoklari prokatlash stanining kassetalariga o'rnatildi va bunda ikkita zoldir prokatlash valoklarini bir-biridan farqlash uchun ular o'ng valok va chap valok deb yuritildi. Prokatlash valoklarining bunday farqlanishining asosiy sababi zoldir prokatlash valoklarining diametrlari va profillari turli o'lchamlarda kesilishi bilan bog'liq ekanligi hisobga olindi.

Material va metodlar

Ushbu maqolada qo'yilgan masalani yechish uchun ariqchalarining markazlari siljigan vintli kalibrli olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini kalibrovkalash texnologiyasidan foydalanildi. Shuningdek, sonli hisoblashlarni bajarishda EHMning yangi va samarali

usullaridan keng foydalangan holda, natijalarni tahlil qilish uchun MathCAD va KOMPAS dasturlari qo'llanildi.

Zoldir prokatlash valoklarini kesishda qo'llanadigan kulachoklar raqamli dasturlash bilan boshqariladigan (RDB) frezalash dastgohida maxsus dastur yordamida tayyorlandi.

Olti kirimli zoldir prokatlash valoklarining kalibrovkasini ishlab chiqishda ularning standart o'lchamlariga alohida ahamiyat berildi. Standart o'lchamlarga mos bo'lgan zoldir prokatlash valoklarida o'zgaruvchan markazli ariqchalarga ega vintli sirtlarni kesish uchun yarim avtomatlashtirilgan maxsus nusxa ko'chirish moslamasi bilan jihozlangan RT117 markali tokarlik vint qirqish dastgohidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari


Ma'lumki, "O'zmetkombinat" AJning ishlab chiqarish sharoitida diametri 80 dan 120 mm gacha bo'lgan zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan ZPS 80–120 stanida DSt 7524-2015 bo'yicha mos diametr o'lchamlaridagi zoldirlar issiqalayin prokatlash usuli orqali ishlab chiqariladi (1-rasm).



1-rasm. Maydalovchi po'lat zoldirlar

Maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan ikki valokli prokatlash stanlarida zoldirlarni ishlab chiqarish uchun qo'llanadigan prokatlash valoklarini kalibrlash texnologiyasi juda murakkab bo'lib, bu texnologiya turli diametrdagi zoldirlarga qo'yiladigan talablar asosida bir-biridan farq qiladi.

Maydalovchi po'lat zoldirlarni issiqalayin prokatlash usuli yordamida ishlab chiqarish uchun qizdirilgan maxsus xomashyo o'ng va chap prokatlash valoklar hamda yuqori va quyi yo'naltiruvchi lineyklar orasidan ilgarilanma-aylanma harakatni amalga oshirib o'tkaziladi. Natijada xomashyoni prokatlash valoklarining rebordalari kesishi va ishlov berishi natijasida zoldirlar hosil bo'ladi (2-rasm). Zoldir prokatlash jarayonida maydalovchi po'lat zoldirlarning hosil bo'lish jarayoni 2-rasmda keltirilgan.




1 – valok; 2 – vintli reborda; 3 – vintli ariqcha;

4 – maydalovchi po'lat zoldir; 5 – bo'yincha; 6 – xomashyo; 7 – truba.

2-rasm. Vintli kalibrli ikki valokli prokatlash stanida vintli davriy prokatlash texnologik jarayoni

RT117 markali tokarlik vint qirqish dastgohida ariqchalarining markazlari o'zgaruvchan vintli kalibrli olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini qirqishda eng asosiy vazifalardan birini bajaruvchi zveno kulachoklar hisoblanadi (Shakhobutdinov, 2024). Qo'yilgan masalani yechish uchun zoldir prokatlash valoklarini kesishda qo'llanadigan kulachoklar RDB frezalash dastgohida tayyorlandi. Buning uchun olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini kesishda vintli kalibrning qadamini ta'minlab beruvchi profili nazariy asoslangan kulachoklar ustida hisoblash ishlari bajarildi va RDB dastgohiga mos bo'lishi uchun dastur tuzildi. Tuzilgan dastur asosida kulachoklar tayyorlandi.

Olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo'llanadigan profili nazariy asoslangan kulachoklarni loyihalashda eng yuqori samaradorlikka ega bo'lish uchun hisoblash ishlarini o'ta yuqori aniqlikda bajarish zarur (3-rasm). Bu esa, asosan, kulachokka qo'yilgan talablar bajarilishini ta'minlash, ya'ni aniq va to'g'ri loyihalash bilan bog'liq.



1 – kulachok; 2 – rolik; 3 – prujina.

3-rasm. Kulachokli mexanizmning kinematik sxemasi

3-rasmda zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo'llanadigan kulachokli mexanizmning kinematik sxemasi keltirilgan.

Kulachok va rolikning bir-biriga nisbatan o'zaro tiqilib qolishi ehtimolining oldini olish maqsadida kulachokning bir marta to'liq aylanishi davrida bosim burchagi θ_k ning belgilangan qiymatidan oshmasligi kerak.

Bunda kritik bosim burchagi loyihalash vaqtida o'rnatildi va o'rnatilgan bosim burchagini ta'minlash shartidan kelib chiqqan holda, kulachokning minimal radiusi aniqlandi (Karimov & Shakhobutdinov, 2020):

$$R \frac{S'_k}{\tan \theta_{k0.min}}, \quad (1)$$

bu yerda: θ_k – bosim burchagi;

S_k – kulachok markazining ko'chishi;

S'_k – kulachokning tezlik analogi.

Kulachokning nazariy profilini hosil qilishda kulachok va rolikning joylashish xususiyatlari hamda ishlab chiqarish sharoitida uskunaning imkoniyatlarini inobatga olgan holda, kulachokning minimal radiusi $R_{0.min} = 165 \text{ mm}$ deb qabul qilindi.

Kulachokning minimal radiusi parametrik ko‘rinishdagi ifodasi quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} R_{0x}(\varphi_k) &= R \sin(\varphi_k)_{0.\min} \\ R_{0y}(\varphi_k) &= R \cos(\varphi_k)_{0.\min} \end{aligned} \quad (2)$$

Birinchi kulachokning markaziy profili koordinatalarining parametrik ko‘rinishdagi ifodasi quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} x_1(\varphi_k) &= (R1(\varphi_k)_{0.\min}) \sin(\varphi_k) \\ y_1(\varphi_k) &= (R1(\varphi_k)_{0.\min}) \cos(\varphi_k) \end{aligned} \quad (3)$$

Ikkinchi kulachokning markaziy profili koordinatalarining parametrik ko‘rinishdagi ifodasi quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} x_2(\varphi_k) &= (R2(\varphi_k)_{0.\min}) \sin(\varphi_k) \\ y_2(\varphi_k) &= (R2(\varphi_k)_{0.\min}) \cos(\varphi_k) \end{aligned} \quad (4)$$

Kulachokning burilish burchagi $\varphi_k = 0^\circ, 1^\circ, 2^\circ, \dots, 360^\circ$ qiymatlarni qabul qiladi, deb hisoblagan holda, kulachoklarning nazariy profili radius vektorlarining qiymati quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} R_{11}(\varphi_k) &= \sqrt{(x_1(\varphi_k))^2 + (y_1(\varphi_k))^2} \\ R_{22}(\varphi_k) &= \sqrt{(x_2(\varphi_k))^2 + (y_2(\varphi_k))^2}, \end{aligned} \quad (5)$$

bu yerda: φ_k – kulachokning burilish burchagi.

Rolikning radiusini aniqlashda kulachok nazariy profilining ma’lum bir qismida egrilik radiusi rolik radiusidan kichik bo’lsa, u holda kulachokning nazariy va amaliy profillarining kesishgan qismlari hosil bo’ladi. Shuning uchun profil qismlarining kesishishini tasvirlash uchun rolik radiusi kulachokning minimal egrilik radiusidan kichik bo’lishi kerak. Rolikning radiusini quyidagi munosabatlar orqali aniqlash maqsadga muvofiq:

$$\begin{aligned} R_{rolik} &\leq 0,8 \cdot \rho_{\min} \\ R_{rolik} &= (0,4 \dots 0,5) \cdot R_{0.\min} \end{aligned} \quad (6)$$

bu yerda: $\rho_{\min}$ – kulachok nazariy profilining egrilik radiusi.

Ishlab chiqarish sharoitida kulachok va rolikning joylashishi bo’yicha uskuna imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, rolikning radiusi $R_{rolik} = 30 \text{ mm}$ deb qabul qilindi.

Rolik radiusining qabul qilingan R_{rolik} qiymati bo’yicha kulachoklar amaliy profilining koordinatalari quyidagicha aniqlandi (Karimov et al., 2014):

$$\begin{aligned} x(\varphi_k) &= (R_{0.\min} + S_k) \cos \varphi_k + \frac{R_{rolik} (R_{0.\min} + S_k) \cos \varphi_k + R_{rolik} \cdot \frac{dS_k}{d\varphi_k} \cdot \sin \varphi_k}{\sqrt{(R_{0.\min} + S_k)^2 + \left(\frac{dS_k}{d\varphi_k}\right)^2}} \\ y(\varphi_k) &= (R_{0.\min} + S_k) \sin \varphi_k + \frac{R_{rolik} (R_{0.\min} + S_k) \sin \varphi_k - R_{rolik} \cdot \frac{dS_k}{d\varphi_k} \cdot \cos \varphi_k}{\sqrt{(R_{0.\min} + S_k)^2 + \left(\frac{dS_k}{d\varphi_k}\right)^2}} \end{aligned} \quad (7)$$

Ko'rilayotgan masala uchun zoldir prokatlash valogi vintli kalibrining umumiy uzunligi $\varphi_{um.} \approx 823^\circ$ ga teng.

Kulachokning bir marta to'liq aylanishida zoldir prokatlash valogining ψ marta aylanishini hisobga olgan holda quyidagicha aniqlandi:

$$\psi = \frac{\varphi_{um}}{\pi} = \frac{823^\circ}{360^\circ} = 2,286. \quad (8)$$

Kulachokning burilish burchagi qiymati $0^\circ - 360^\circ$ oraliqda o'zgaradi. Mathcad 15.0 dasturi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, kulachok profili uning burilish burchagining bir gradus oraliqidagi ketma-ketligi bilan hosil qilindi:

$$\varphi_k = 0^\circ, 1^\circ, 2^\circ, \dots, \frac{822^\circ}{\psi}.$$

O'ng va chap valoklarning shakl hosil qiluvchi qismini qirqish uchun mos keladigan kulachokning burilish burchagi qiymati quyidagicha: $\varphi_{sh.h.q.o'} = 434^\circ$, $\varphi_{sh.h.q.ch} = 312^\circ$.

O'ng va chap valoklarning shaklga ishlov beruvchi qismini qirqish uchun mos keladigan kulachokning burilish burchagi qiymati quyidagicha: $\varphi_{sh.h.q.o'} = 286^\circ$, $\varphi_{sh.h.q.ch} = 408^\circ$.

Prokatlash valogi vintli kalibrlari orasidagi o'zgaruvchan qadam qiymati quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} Z_{o'}(\varphi_i) &= Z\left(\frac{\varphi_{360}}{n}\right) + 2 \cdot C_{o'}(\varphi_i) + B_{o'}(\varphi_i) \\ Z_{ch.}(\varphi_i) &= Z\left(\frac{\varphi_{360}}{n}\right) + 2 \cdot C_{ch.}(\varphi_i) + B_{ch.}(\varphi_i). \end{aligned} \quad (9)$$

Kulachoklar markazining ko'chishi qiymati quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} S_{k1}(\varphi_i) &= Z_{o'}(\varphi_i) - T_{dastgoh}(\varphi_i) \\ S_{k2}(\varphi_i) &= Z_{ch.}(\varphi_i) - T_{dastgoh}(\varphi_i) \end{aligned} \quad (10)$$

Zoldir prokatlash valoklari kalibrovkasini ishlab chiqish bo'yicha aniqlangan parametrlar, ya'ni vintli kalibrlar orasidagi o'zgaruvchan qadam qiymati $Z(\varphi)$, yarim sferalar orasida hosil bo'ladigan silindr qismning o'zgarishi $S(\varphi)$, rebordaning qalinligi $b(\varphi)$, rebordaning balandligi $h(\varphi)$, vintli kalibr yarim sferasi yuzasining o'zgarishi va zoldir umumiy hajmining qiymati o'zgarmasligini ta'minlash parametrlari orqali $S_1(\varphi_k)$ birinchi kulachok va $S_2(\varphi_k)$ ikkinchi kulachok markazining ko'chishini aniqlash uchun matematik modellar hosil qilindi. Bunda parametrlarning qiymatlarini kulachokning burilish burchagiga bog'liq holda, A_m va B_m , ($m = 1 \dots 7$) matritsalar ko'rinishida ifodalash orqali amallar ketma-ketligi bajarildi:

$$A_m = \begin{pmatrix} \left(\frac{A(I)_{j_{2m-1}}}{\psi}\right)^2 & \frac{A(I)_{jm}}{\psi} & 1 \\ \left(\frac{A(I)_{j_{2m}}}{\psi}\right)^2 & \frac{A(I)_{j_{2m}}}{\psi} & 1 \\ \left(\frac{A(I)_{j_{2m+1}}}{\psi}\right)^2 & \frac{A(I)_{j_{2m+1}}}{\psi} & 1 \end{pmatrix}, (m = 1 \dots 6) \quad (11)$$

bu yerda: j_m - ning qiymati zoldir prokatlash valogi kalibrovkasini ishlab chiqish natijalari bo'yicha aniqlanadi va bunda aniqlangan chegaraviy qiymatlar uchun $j_m = j_{m-1} + 6$ ifoda o'rinli.

Zoldir prokatlash valogi kalibrovkasini ishlab chiqishdagi hisoblashlar asosida quyidagilar o'rinli:

$$A_7 = \begin{pmatrix} \left(\frac{739}{\psi}\right)^2 & \frac{739}{\psi} \\ \left(\frac{\varphi_{um}}{\psi}\right)^2 & \frac{\varphi_{um}}{\psi} \end{pmatrix}, E_m = \begin{pmatrix} Z_k(A(I)_{j_{2m-1}}) \\ Z_k(A(I)_{j_{2m}}) \\ Z_k(A(I)_{j_{2m+1}}) \end{pmatrix}, (m = 1...6) \quad (12)$$

bu yerda Z_k – o'zgaruvchan qadam uzunligining qiymati.

E_7 matritsa quyidagicha aniqlandi:

$$E_7 = \begin{pmatrix} Z_k(739) \\ 0 \end{pmatrix}. \quad (13)$$

A_m matritsaga teskari bo'lgan A_m^{-1} matritsa bilan E_m matritsa ko'paytmasi f_m matritsa ko'rinishida belgilandi va uning qiymati quyidagicha aniqlandi:

$$f_m = A_m^{-1} \cdot E_m, (m = 1...7). \quad (14)$$

Birinchi kulachok markazining $S_1(\varphi_k)$ ko'chishi quyidagicha aniqlandi:


$$S_1(\varphi_k) = \begin{cases} f_{10,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{11,0} \cdot \varphi_k + f_{12,0}, \text{ agar } 0 \leq \varphi_k \leq \frac{120}{\psi} \\ f_{20,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{21,0} \cdot \varphi_k + f_{22,0}, \text{ agar } \frac{120}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{240}{\psi} \\ f_{30,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{31,0} \cdot \varphi_k + f_{32,0}, \text{ agar } \frac{240}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{360}{\psi} \\ f_{40,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{41,0} \cdot \varphi_k + f_{42,0}, \text{ agar } \frac{360}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{480}{\psi} \\ f_{50,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{51,0} \cdot \varphi_k + f_{52,0}, \text{ agar } \frac{480}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{600}{\psi} \\ f_{60,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{61,0} \cdot \varphi_k + f_{62,0}, \text{ agar } \frac{600}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{739}{\psi} \\ f_{70,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{71,0} \cdot \varphi_k, \text{ agar } \frac{739}{\psi} \leq \varphi_k \leq 360 \end{cases}. \quad (15)$$

Ikkinchi kulachok markazining $S_2(\varphi_k)$ ko'chishi quyidagicha aniqlandi:

$$S_2(\varphi_k) = \begin{cases} f_{110,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{111,0} \cdot \varphi_k + f_{112,0}, \text{ agar } 0 \leq \varphi_k \leq \frac{120}{\psi} \\ f_{220,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{221,0} \cdot \varphi_k + f_{222,0}, \text{ agar } \frac{120}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{240}{\psi} \\ f_{330,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{331,0} \cdot \varphi_k + f_{332,0}, \text{ agar } \frac{240}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{360}{\psi} \\ f_{440,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{441,0} \cdot \varphi_k + f_{442,0}, \text{ agar } \frac{360}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{480}{\psi} \\ f_{550,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{551,0} \cdot \varphi_k + f_{552,0}, \text{ agar } \frac{480}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{600}{\psi} \\ f_{660,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{661,0} \cdot \varphi_k + f_{662,0}, \text{ agar } \frac{600}{\psi} \leq \varphi_k \leq \frac{770}{\psi} \\ f_{770,0} \cdot \varphi_k^2 + f_{771,0} \cdot \varphi_k, \text{ agar } \frac{770}{\psi} \leq \varphi_k \leq 360 \end{cases}. \quad (16)$$


bu yerda: $f_1, f_2, f_3, f_4, f_5, f_6, f_7, f_{11}, f_{22}, f_{33}, f_{44}, f_{55}, f_{66}, f_{77}$ – parametrlarning qiymatlari zoldir prokatlash valogini loyihalashdan olingan parametrlar asosida tuzilgan jadval ko'rinishidagi qiymatlardan olindi va bu jadval Mathcad 15.0 dasturida matritsalar ko'rinishida ifodalandi.

Mathcad 15.0 dasturi yordamida olti kirimli zoldir prokatlash valogini kesishda vintli kalibrning qadamini ta'minlab beruvchi ilgarilanma va aylanma harakat qiluvchi kulachoklar markazining ko'chishi grafigi aniqlandi (4-rasm).




4-rasm. Kulachoklar markazining ko'chishi grafigi

Kompas-3D v21 dasturida 1-kulachok va 2-kulachokning 3D modellari yaratildi (5-, 6-rasmlar). Kulachoklarning 3D modellari step kengaytmali fayl shaklida frezalash RDB dastgohida kulachoklarni tayyorlash uchun berildi.



5-rasm. Olti kirimli zoldir prokatlash valogini kesishda vintli kalibr qadamini ta'minlab beruvchi 1-kulachokning Kompas-3D v21 dasturidagi 3D modeli



6-rasm. Olti kirimli zoldir prokatlash valogini kesishda vintli kalibr qadamini ta'minlab beruvchi 2-kulachokning Kompas-3D v21 dasturidagi 3D modeli

Xulosa

Ushbu tadqiqotda kulachoklarning 3D modellari asosida kulachoklar tayyorlandi va maxsus nusxa ko'chirish moslamasi yordamida o'zgaruvchan qadamga ega vintli kalibrni qirqish amaliyotini bajarish tokarlik vint qirqish dastgohida amalga oshirildi.

Diametri 50 mm bo'lgan zoldirlarni prokatlashda qo'llanadigan zoldir prokatlash valoklarini qirqish uchun KOMPAS dasturi yordamida uch o'lchamli modellari ishlab chiqilgan kulachoklar tayyorlandi va ijobiy natijalar olindi. Olingan natijalarga asoslangan holda, "O'zmetkombinat" AJ tomonidan sinov-tajriba amaliyotlari o'tkazildi va ZPS 80–120 stanida olti kirimli diametri 50 mm bo'lgan zoldirlar ishlab chiqarish amaliyotga joriy qilindi.

Ilmiy izlanishlarni amaliyotga joriy etish natijasi bo'yicha ariqchalarining markazlari siljigan o'zgaruvchan qadamga ega vintli kalibrli olti kirimli valoklar yordamida diametri 50 mm bo'lgan zoldirlarni ZPS 80–120 stanida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni DSt 7524-2015 bo'yicha issiqalayin prokatlash yo'li orqali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida olti kirimli vintli kalibrlardan foydalanib, "O'zmetkombinat" AJ bilan hamkorlikda bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi va malaka sinovlari o'tkazildi. O'tkazilgan sinovlar asosida maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarish unumdorligi oshganligi va sarflangan vaqt sezilarli darajada tejalganligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida olti kirimli vintli kalibrlardan foydalangan holda, diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishda metall xomashyoning kimyoviy tarkibi o'rganildi. Natijada ishlab chiqarilgan maydalovchi po'lat zoldirlarning kimyoviy tarkibi DSt 7524-2015 ga mos va uning qattiqligi 3-guruhga tegishli ekanligi aniqlandi. "O'zmetkombinat" AJ tomonidan berilgan malaka sinovlari dalolatnomalari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasi va kimyoviy tarkibiy qismlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ZPS 40–80 stanida uch kirimli vintli kalibrlardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarga nisbatan ZPS 80–120 stanida olti kirimli vintli kalibrlardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarning qattiqligi yuqori va ish unumdorligi ikki barobarga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Minnatdorlik

ZPS 80–120 stanida olti kirimli diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlar ishlab chiqarishni amaliyotga joriy qilishda yaqindan yordam bergan va qo'llab-quvvatlagan "O'zmetkombinat" AJ mutasaddi rahbarlari hamda mas'ul xodimlariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

REFERENCES

1. Filippova, M. V., Temlyantsev, M. V., Pretyatko, V. N., & Prudkiy, E. E. (2017). Rolling of Metal Balls. (In Russian). *Steel Transl.*, 435–439.
2. Gorbatyuk, S., Beleyubskiy, B., Karfidov, A., & Snitko, S. (2022). Method for Calculating the Shape of Rolls for Helical Rolling. (In Russian). *Modern Trends in Manufacturing Technologies and Equipment*, 36–42.
3. Granovskiy, S. P. (1980). *New Technologies and Mills for Rolling of Products in Screw Calibers*. (In Russian). Moscow: Metallurgiya.
4. Karimov, R. I., Sadullayev, Sh. A., & Shaxobutdinov, R. E. (2014). Cam and cam-lever mechanisms. *Fundamentals of theory and constructions*. Tashkent: TashSTU.

5. Karimov, R. I., & Shakhobutdinov, R. E. (2020). Development of a cam mechanism taking into account the loading of its links for cutting ball-rolling rolls with screw calibers with an offset center of streams on a screw-cutting machine. *Modern problems of Innovative Development of Science, education and production: Proceedings of the International Scientific and Practical Conference* (pp. 158–161). Andijan: Andijan Machine-Building Institute.
6. Kotyonok, V. I., & Podobedov, S. I. (2000). Creation of effective calibrations of ball rolling rolls and expansion of the range of balls at existing and new mills. *Proceedings of the III Congress of Distributors* (Lipetsk, 1999, October 19–22) (pp. 438–441). (In Russian). Moscow: Chermetinformation JSC.
7. Kotyonok, V. I., & Podobedov, S. I. (2001). Energy-efficient design of rolls for ball-rolling mills. (In Russian). *Metallurgist*, 363–367.
8. Pretyatko, V. N., Klimov, A. S., & Filippova, M. V. (2013). Calibration of rolls of a ball-rolling mill. (In Russian). *News of Higher Educational Institutions, Ferrous Metallurgy*, 16–20.
9. Selikov, A. I., Barbarich, M. V., & Vasilchikov, M. V. (1971). *Special rolling mills*. (In Russian). Moscow: Metallurgy.
10. Shakhobutdinov, R. E. (2024). *Theoretical and applied fundamentals of cam mechanisms used in ball rolling production*. Tashkent: Innovative Development Publ.
11. Shakhobutdinov, R. E., Karimova, A. R., & Nosirov, T. N. (2024). Tasks of mastering the production of import-substituting steel grinding balls products. *Science and Innovative Development*, 36–44.
12. Specifications. (2016). *Grinding steel balls for ball mills*. (In Russian). Moscow: Standartinform.
13. Zbignev, P., Janusz ,T., Jaroslaw, B., & Tomasz, B. (2018). Thermomechanical Analysis of a Helical-Wedge Rolling Process for Producing Balls. *MDPI Journals*, 1–7.

UDC: 677.21.021(045)(575.1)

EDN: <https://elibrary.ru/ncrqpg>

ПАХТА ТОЗАЛАШ ҚУРИЛМАСИНИНГ САМАРАЛИ ИШЛАШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ОПТИМАЛ ПАРАМЕТРЛАРНИ АНИҚЛАШ

Қирғизов Мадёр Ўқтамали ўғли¹, Рахимов Файзулло Хусанбой ўғли²,
Мурадов Рустам Мурадович³

¹мустақил изланувчи
e-mail: madyor9393@mail.ru

²техника фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)
e-mail: f.rahimov95@mail.ru

³техника фанлари доктори,
профессор
e-mail: muradovrustam340@gmail.com

¹“University of Business and
Science” нодавлат олий
таълим муассасаси

^{2,3}Наманган тўқимачилик
саноати институти

Аннотация. Ҳар бир технологик машиналарни лойиҳалаш ва ишлаб чиқаришга жорий қилишдан аввал уларнинг рационал параметрларини аниқлаш алоҳида аҳамият касб этади. Чунки лойиҳаланаётган янги машина ўздан олдинги ва кейинги жараёндаги машиналарга мутаносиб бўлиши зарур. Худди шундай ишлаб чиқариш соҳаларидан бири пахтани дастлабки ишлаш бўлиб, ушбу соҳада ҳам бир нечта кетма-кетликда жойлашган технологик машиналардан фойдаланилади. Уларнинг юқори самарадорлик ва унумдорликда ишлаши рационал параметрларга эга бўлган ишчи органларига боғлиқдир. Тадқиқотчилар томонидан соҳага жорий қилинаётган пахта тозалаш машиналарининг самарали ишлашини таъминловчи параметрларни аниқлаш ҳамда белгиланган тартибда тажрибалар ўтказиш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Мақолада пахта тозалаш корхоналарида пахта хомашёсини йирик ва майда минерал аралашмалардан тозалашда фойдаланиб келинаётган технологик машиналарнинг ишлаши мобайнида ишчи элементларининг қурилма тозалаш самарадорлигига таъсири ўрганилиб, қурилма ишчи элементлари турли хил қийматларда кировчи омил сифатида танлаб олинган. Қурилма ишчи элементларининг оптимал параметрларини аниқлаш мақсадида такрорланмас комбинациялашган усулда ўтказилган тажрибалар натижалари келтирилган. Ушбу параметрларни аниқлашда ТОТ 23 кўринишдаги тўлиқ факторли эксперимент ўтказиш орқали қурилма ишчи органларининг рационал параметрлари аниқланган. Олинган натижалар Фишер F-критериясининг 5 % аҳамиятлилиқ даражасидаги жадвал асосида солиштириб текширилган.

Калит сўзлар: пахта, вакуум клапани, тозалаш машинаси, магнитли барабан, кувур, ҳаво, тезлик, резина парраклар, металл парчаси, ўза қўсаги.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ ЭФФЕКТИВНУЮ РАБОТУ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЯ

Киргизов Мадёр Уқтамали угли¹, Рахимов Файзулло Хусанбой угли²,
Мурадов Рустам Мурадович³

¹самостоятельный
соискатель

²доктор философии по
техническим наукам (PhD)

³доктор технических наук,
профессор

¹Негосударственное
высшее образовательное
учреждение University of
Business and Science

^{2,3}Наманганский
институт текстильной
промышленности

8д-расмда толанинг йўқолиш миқдори тўрли лента айланишлар сони ва сепаратор иш унумдорлигига таъсири кўриб чиқилган. Бунда энг юқори ва энг паст кўрсаткичлар киритилган ҳолатда график олинган ва оптимал параметр сифатида тўрли юзанинг айланишлар сони 50 айл/дақ., сепараторнинг иш унумдорлиги эса 20 т/соат бўлганда яхши бўлиши кузатилди;

8е-расмда толанинг йўқолиш миқдори тўрли юзанинг айланишлар сони 60 айл/дақ., кириш қисмидаги градус 35° бўлганда, оптимал қийматга эга эканлигини кўрсатмоқда.

Хулоса

Таклиф этилаётган қўзғалувчан қурилманинг оптимал параметрлари ва иш режими атрофлича ўрганилди. Ишлаш жараёнида аниқланган баъзи бир технологик ва конструктив камчиликлар бартараф этилди. Қўзғалувчан қурилманинг оптимал параметрлари аниқланиб, ўрнатилган ишчи органлар ўзгартирилди ва ускунада тажриба синовлари олиб борилди. Таклиф этилаётган қўзғалувчан қурилмага ўрнатилган лентали тўрли юзали сепаратор “Namangan To‘qimachi cluster” МЧЖга қарашли “To‘raqo‘rg‘on paxta tozalash” корхонасида синовдан ўтказилди.

Пахтани узоқ масофадан қувурларда ташишда қўлланадиган қўзғалувчан қурилманинг оптимал параметрларини аниқлаш учун тажрибалар кўп омили экспериментлар сифатида режалаштирилди ва қурилманинг оптимал параметрлари аниқланди:

- тўрли лентанинг айланиш тезлиги $X_1 = 75$ айл/дақ.;
- кириш қисмидаги йўналтиргич бурчаги $X_2 = 35^{\circ}$;
- сепараторнинг иш унумдорлиги $X_3 = 17$ т/соат;
- пахтанинг намлиги $X_4 = 9$ %.

REFERENCES

1. Amirov, R. (1976). Research of influence of mechanisation means of pneumatic conveying installations on fibre quality [PhD thesis]. (In Russian). Tashkent.
2. Artykov, N. (1971). Peculiarities of work of pneumatic conveying system for raw cotton with

pneumatic conveying. *Report of the Academy of Sciences of the UzSSR*, (7).

3. Mardonov, B. M., Usmanov, X. S., & Salokhiddinova, M. (2019). Theoretical analysis of the process of isolating impurities from the raw cotton stream as a result of vibration of the inclined plane. *Textile Journal of Uzbekistan*, 1 (1), Article 3. <https://uzjournals.edu.uz/titli/vol1/iss1/3>

4. Mardonov, B., Mamatkulov, O., & Salokhiddinova, M. (2016). Studying the movement of cotton on the mesh surface in the working chamber of the separator. (In Uzbek). Corporate cooperation of science, education and production in increasing the creative and intellectual potential of young people: problems and solutions: Proceedings of the Republican scientific-practical conference (pp. 123–127). FarSU.

5. Meliboev, U. Kh. (2020). Basics of modeling technological processes of the textile industry. Namangan: Adabiyot Uchukunlari Publ.

6. Muradov R., & Salokhiddinova, M. (2022a). Improvement of cotton separator construction [Monograph]. LAP Lambert Academic Publ.

7. Muradov, R., & Salokhiddinova, M. (2021). Improvement of the design of the cotton separator [Monograph]. (In Uzbek). Namangan: Istedod Ziya Press Publ.

8. Muradov, R., Habibullaev, L., & Mamarasulov, H. (1988). Influence of raw cotton pneumatic conveying mode on the efficiency of heavy impurities catchers. (In Russian). *Cotton Industry*, 6, 16–17.

9. Salokhiddinova, M. & Muradov, R. (2022c). Research to Reduce Seed and Fiber Strain in Cotton Separator. *AIP Conference Proceedings*, 2650, 030018. <https://doi.org/10.1063/5.0105476>

10. Salokhiddinova, M. N. q., Khalikov, Sh. Sh., Khakimova, M. Y. q., & Muradov, R. M. (2020). Ways to Reduce the Impact of Cotton in the Separator Worker Chamber. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24 (04), 6494–6501. <http://dx.doi.org/10.37200/IJPR/V24I4/PR2020458>

11. Salokhiddinova, M. N. q., Muradov, R. M., Mamatqulov, O. T., & Khalikov, Sh. Sh. (2020). Theoretical Research of the Process of Separating Impurities from Cotton Flow on the Vibrating Inclined Mesh Surface. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29 (7), 10858–10869. <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/27500>

12. Salokhiddinova, M., & Muradov, R. (2021). Research to reduce seed and fiber strain in cotton separator. *Industrial Technologies and Engineering: Proceedings of the VIII International Annual Conference (ICITE-2021) - AIP Conf. Proc.* 2650, 030018-1–030018-8. <https://doi.org/10.1063/5.0105476>

13. Salokhiddinova, M., & Muradov, R. (2022b). Methods for Increasing the Efficiency of Cleaning the Transfer Device. *Engineering*, 14, 54–61. <https://doi.org/10.4236/eng.2022.141005>

14. Salokhiddinova, M., Muradov, R., & Mardonov, B. (2019). Study of movement of cotton on the inclined mesh surface of separator equipment. (In Uzbek). *Scientific and technical journal of Fergana Polytechnic Institute*, (1), 33–39. Fergana.

15. Salomova, M., Salokhiddinova, M., Muradov, R., & Kushimov, A. (2023). How to increase the effect radius of the cotton transport process in a mobile device. *Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve them: AIP Conf. Proc.*, 2789, 040045-1–040045-5. <https://doi.org/10.1063/5.0145641>

16. Secretariat of the ICAC. (n.d.) International cotton advisorycommittee. Washington. <https://icac.org/emailsecretariat@icac.org>

17. Sevostyanov, A. G. (2007). *Methods and means of research of mechanical and technological processes of textile industry*. Moscow: Legkaya Industriya Publ.

18. Urinboyeva, M. M. q., Tashpulatov, M. B., Tuychiboyev, A. A. u., Muradov, R. M., & Salokhiddinova, M. N. q. (2023). Ways to improve the construction of cleaning cotton from heavy mixtures. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 12, 45–49 <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/469/452>

19. Yuldashev, Kh. H., Salokhiddinova, M. N. k., Kushimov, A. A., & Ergasheva, D. G. k. (2022). Improving the retention of free fibers in raw cotton and the separation of cotton from the air. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 34–38. <https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/1184>

UDC: 687.157:629(045)(575.1)

EDN: <https://elibrary.ru/xmwbna>

AVTOMOBIL SANOATI ISHCHILARI UCHUN YANGI ASSORTIMENTDAGI MAXSUS KIIYIM LOYIHALASHDA TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH

Norboyeva Gulasal Narzullayevna

texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD),
"Tabiiy tolalar va matoga
ishlov berish texnologiyasi"
kafedrası v. b. dotsenti
ORCID: 0000-0001-5880-7550
e-mail:
norboyevagulasal312@gmail.
com

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil sanoati ishchilarining maxsus kiyim kiyish jarayonida ter ajralib chiqish uchastkalari topografiyasini o'rganish asosida ventilyatsiya elementlaridan foydalanish orqali maxsus kiyim loyihalash vazifasi o'rganildi. Ishchilarning ish harakatlari paytida maxsus kiyim osti muhiti va tashqi muhit o'rtasida o'zaro havo almashinuvi jarayoni tadqiq qilindi. Terlash topografiyasini hisobga olib, uchastkalariga ventilyatsiya elementi qo'yilgan yangi assortimentdagi maxsus kiyim yaratildi va avtomobil sanoati yig'uv sexida faoliyat olib boruvchi ishchilarga tavsiya etildi. Bunda xona harorati va nisbiy namligining belgilangan me'yorlarga javob bermasligi; sexdagi uskuna va jihozlar yuzasidagi yuqori haroratning ishchi organizmiga salbiy ta'siri; ishchining harakatlari hisobiga kiyim ostidagi havo almashinuvining buzilishi; smena davomida ishchidan intensiv ter ajralishi natijasida sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi; smena davomida ishchi amalga oshiradigan harakat turlarining maxsus kiyim konstruksiyasida e'tiborga olinmaganligi kabi salbiy omillar mavjudligi aniqlandi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, yig'uv sexi ishchilari uchun gigiyenik va havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari yaxshilangan maxsus kiyimlar ishlab chiqishga oid tavsiyalar berildi hamda maxsus kiyim uchun tavsiya etilgan asosiy gazlamalarning strukturaviy, fizik-mexanik ko'rsatkichlari keltirildi. Yangi assortimentdagi maxsus kiyimni loyihalashda aralash tolali gazlama bilan birgalikda inson tanasi va kiyim osti muhitida havo aylanishini ta'minlash uchun to'r matolardan foydalanish orqali samarali natijalarga erishildi.

Kalit so'zlar: maxsus kiyim, ventilyatsiya elementi, ventilyatsiya maydoni, maxsus kiyim topografiyasi, ergonomik harakat.

РАЗРАБОТКА РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО КОНСТРУИРОВАНИЮ СПЕЦОДЕЖДЫ НОВОГО АССОРТИМЕНТА ДЛЯ РАБОТНИКОВ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Норбоева Гуласал Нарзуллаевна

доктор философии по
техническим наукам
(PhD), доцент кафедры
«Технология натуральных
волокон и обработки
тканей»

Джизакский
политехнический
институт

Аннотация. В данной статье поставлена задача проектирования спецодежды с использованием вентиляционных элементов на основе изучения топографии участков выделения пота в процессе ношения спецодежды работниками автомобильной промышленности. Исследован процесс взаимного воздухообмена между средой, находящейся под специальной одеждой, и внешней средой во время рабочего движения рабочих. С учётом топографии участков выделения пота был создан новый ассортимент специальной одежды с вентиляционными элементами, которая рекомендована работникам, работающим в сборочном цехе автомобильной промышленности. При этом отмечается наличие таких негативных факторов, как несоответствие комнатной температуры и относительной влажности воздуха установленным нормам; негативное влияние на организм рабочего высокой температуры на поверхности оборудования и оборудования в цехе; нарушение воздухообмена под одеждой за счёт движений рабочего; негативное влияние на здоровье работника интенсивного выделения пота во время смены; игнорирование в конструкции спецодежды видов движений, выполняемых работником во время смены. С учётом этих факторов были даны рекомендации по разработке специальной одежды с

улучшенными гигиеническими и воздухопроницаемыми показателями для работников сборочного цеха, а также приведены структурные, физико-механические показатели материалов, рекомендованных для специальной одежды. При разработке новой линейки специальной одежды эффективные результаты были достигнуты за счёт использования сетчатых тканей в сочетании с материалом из смешанного волокна для обеспечения циркуляции воздуха между телом человека и одеждой.

Ключевые слова: специальная одежда, вентиляционный элемент, вентиляционная зона, специальная топография одежды, эргономичное движение.

DEVELOPMENT OF RECOMMENDATIONS ON DESIGNING OF NEW ASSORTMENT OF OVERALLS FOR WORKERS OF AUTOMOBILE INDUSTRY

Norboeva Gulasal Narzullaevna

Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of "Technology of Natural Fibers and Fabric Processing"

Jizzakh Polytechnic Institute

Kelib tushgan/Получено/Received: 24.09.2024

Qabul qilingan/Принято/Accepted: 07.10.2024

Nashr etilgan/Опубликовано/Published: 31.10.2024

Abstract. The article reveals the issue of designing a uniform with ventilation elements based on the study into the topography of sweat secretion with automotive companies' staff wearing a uniform. The study was made into the air exchange between the human body and the external environments while working. Taking into account the topography of sweating, a new line of uniform furnished with ventilation elements was created and recommended for the assembly shop staff of the automotive company. In this case, the temperature and relative humidity of the room do not meet the established standards; negative effect of high surface temperature of the equipment and devices in the shop on the working body; disruption of air exchange under clothing caused by various motions of a worker; poor effect on the human health because of intense sweating during a shift; it was revealed that existing uniform does not take account of such negative factors as various motions made by a staff worker during a shift. Taking into account these negative factors, recommendations were made for the development of a uniform with better hygienic- and air permeability indicators for the assembly shop staff. In the design of the new line of uniform, good results were achieved through the use of mesh fabrics that ensure air circulation in the human body and underwear, along with gauze made of mixed fibers.

Keywords: uniform, ventilation element, ventilation sections, sweat topography, ergonomic movements.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini rivojlantirish, ya'ni yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini yiliga 350 ming birlikkacha oshirish, yengil avtomobillar lokalizatsiyasi darajasini o'rtacha 60 foizga, yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish hajmini 10 ming birlikka, avtomobillar eksporti yillik hajmini 100 ming birlikka yetkazish, avtomobillar modellari qatorini yangilash, jumladan, aholining keng qatlamlari xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi va zamonaviy yengil avtomobillar ishlab chiqarish, shu bilan birga, ish o'rinlari yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ishlab chiqarish sharoitida ishchilarning ish sharoitini yaxshilash va mehnat muhofazasini ta'minlashga qaratilgan maxsus kiyim yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoati sohasida salmoqli natijalarga erishildi. Jumladan, avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 3 barobarga o'sib, 280 mingtaga yetkazildi.

Respublikamiz avtomobil sanoatida olib borilayotgan islohotlar ishchilarning mehnat sharoitlariga o'zining bevosita ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ishchilarni tashqi zararli omillardan

himoya qilish, ularga qulay ish sharoiti yaratish va albatta, ularning sog'ligini nazorat qilish har bir korxona rahbariyatining vazifasi sanaladi. Ishchilar mehnatini muhofaza qilish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb masaladir.

Avtomobil korxonasi kuzov, shassi va kabina yig'ish sexlari, avtomobillarning elektr qismlarini o'rnatish sexi, avtomobil kuzovlarini bo'yash sexi va sifat nazorati bo'limlaridan iborat. Ushbu sexlarda smena davomiyligi 8 soat, xona harorati 22°C ni tashkil etadi. Xonaning nisbiy namligi mavsumga qarab quyidagicha ko'rsatkichlarga ega: yilning sovuq mavsumida 40 %, yilning issiq mavsumida 40–60 %ni tashkil etadi.

Hozirgi davrda maxsus kiyimlar yaratish mushkul vazifa bo'lib, u ish jarayonida inson duch keladigan turli xil sharoitlar, ya'ni o'zgaruvchan ateriologik sharoitlar, o'zgaruvchan jismoniy faoliyat, turli zararli ishlab chiqarish omillari ta'siriga bog'liq (GOST 11209-2014, 2015). Maxsus kiyimlar bir qator talablar, jumladan, himoya, ergonomik, estetik va gigiyenik talablarga javob berishi kerak.

Maxsus kiyimga qo'yiladigan talablarning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoati ishchilarining mehnat sharoitini yaxshilash, ish samaradorligini oshirish uchun yopiq binoda faoliyat olib boruvchi ishchilarga har tomonlama qulay maxsus kiyimi yaratish maqsadga muvofiqdir. Yangi namunadagi maxsus kiyimni loyihalash uchun kiyimda havo almashinuvi va atrof-muhit bilan maksimal namlik almashinuvini ta'minlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish vazifasi belgilandi.

T.M. Zhigalova (1991) tadqiqot ishida temiryo'l stansiyasi vagon deposi texnik xizmat ko'rsatish punktlari ishchilari maxsus kiyimi uchun ventilyatsiya elementlari qo'llangan bo'lib, unda energiya iste'moli darajasi, foydalaniladigan matolar xususiyatlari, kiyimning konstruktiv parametrlari va atrof-muhitning iqlimiy parametrlari hamda maxsus kiyim zonalarida ularning topografiyasini hisobga olgan holda, ventilyatsiya elementlari parametrlarini hisoblashning analitik usuli ishlab chiqilgan. Mazkur usul insonning issiqlik holatini maqbul darajada ushlab turishga yordam beradigan ventilyatsiya elementlari o'lchamlarini tavsiya etish orqali maxsus kiyimlar ishlab chiqish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Sintetik matolarning havo o'tkazish xususiyati va tashqi muhit haroratlarining ta'siri ilmiy asoslangan bo'lib, maxsus kiyimlarning zarur gigiyenik xususiyatlarini ta'minlash uchun ventilyatsiya elementlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

N.L. Zhuravleva (2015) tadqiqot ishida qulay kiyim osti mikroiklimini yaratish maqsadida uchuvchilar va kosmonavtlar uchun mo'ljallangan ichki kiyim ventilyatsion kostyumlarini loyihalashda o'lchovli tipologiya, shuningdek, ortib borayotgan gigiyenik va ergonomik talablarga javob beradigan hamda inson tanasining barqaror issiqlik muvozanatini ta'minlaydigan majburiy shamollatish bilan maxsus maqsadlar uchun ichki kiyim kostyumlarini loyihalash usuli ishlab chiqilgan. Maxsus ichki kostyumi uchun majburiy shamollatish tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u qulay termal holat va issiqlik almashinuvini saqlab turishda inson tanasini bir xilda ventilyatsiya qilishni ta'minlaydi.

Y.O. Lebedevaning (2006) ilmiy tadqiqot ishida birinchi marta katta hajmli izolyatsiyalangan kiyim paketlari deformatsiyasini eksperimental o'rganish hamda ularni issiqlikdan himoya qilish xususiyatlarini baholash usuli asoslangan va ishlab chiqilgan; shamolda kiyim paketi deformatsiyasini hisobga olgan holda, "Odam – issiqlikdan himoyalangan kiyim – atrof-muhit" tizimi elementining issiqlik almashinuvining matematik modeli ishlab chiqildi.

Material va metodlar


Maxsus kiyimlarning gigiyenik xususiyatlari va atrof-muhitning iqlim sharoitlari o'rtasidagi nomuvofiqlik tananing atrof-muhit bilan issiqlik va namlik almashinuvi sharoitida

sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin: ishchining haddan tashqari qizishi, kuchli terlash va boshqalar (Koketkin, 2001). Ko'p terlash keyinchalik kiyimning namlanishiga olib keladi, ishchilarda yoqimsiz hislar keltirib chiqaradi. Agar ularda uzoq vaqt terlash holatlari davom etsa va namlikni shimish holati kuzatilmasa, sovuq keltirib chiqarishi mumkin. Bu oxir-oqibat inson faoliyati pasayishi va kasallanishi ehtimolining oshishiga olib keladi (Zhilisbaeva, 2007).

Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda, himoya talablari bilan birga fiziologik va gigiyenik talablarni ham ta'minlashga katta e'tibor berish lozim (Abramov, 2007). Shu munosabat bilan berilgan ish sharoitlari uchun ratsional xususiyatlarga ega kiyim yaratishda "inson – kiyim – muhit" tizimini o'rganish zarurati paydo bo'ldi (Afinogentova, 2004; Surzhenko, 2001).

Ergonomik talablarga muvofiq bo'lgan maxsus kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish uchun ishchilarning texnologik operatsiyalarni bajarishda eng xos harakatlarini o'rganish va obyektiv tahlil qilish "ADM Jizzakh" hamda "SAMAVTO" MChJ korxonalarida yopiq bino ishchilari faoliyatida amalga oshirildi. Bunda ishchining smena davomidagi harakatlari, ya'ni tik turishi, o'tirishi, egilishi, qo'llarini yon tomon va yuqoriga ko'tarishi kabi pozalari o'rganildi (1-rasm).

Smena davomida bunday ergonomik harakatlar ishchi tomonidan bir necha marotaba takrorlanadi.



1-rasm. Ishchining turli xil statik va dinamik harakatlari sxemasi


Ishchilarning harakat usullari tahlili natijasida tik turish, o'tirish holatlarida quyidagi harakatlar aniqlandi: tanani oldinga egish, orqaga egish, qo'lni bukish, oyoqlarni tos, bo'ksa, tizza bo'g'imlarida bukish, qo'llarni yuqoriga ko'tarish, yon tarafga yoyish, oldinga cho'zish, cho'kkalab o'tirish, oyoqlarning bir-biridan yelka kengligi masofasida bo'lishi kabilar (Rasulova et al., 2022a; Rasulova et al., 2022b).

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoati ishchilari uchun maxsus kiyim loyihalashda "inson – kiyim – muhit" tizimida konstruksiyaning ergonomik ratsionalligi hamda kiyim tayyorlash texnologik jarayoni ishchining harakat dinamikasi va ish pozalariga bog'liq.

Yig'uv sexidagi ishchilar ish faoliyati jarayoni kuzatuvidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yopiq binodagi ishchilarning ish vaqtida tanasidan intensiv ter ajralib chiqishi kuzatildi (Rasulova et al., 2023; Rasulova et al., 2020; Rasulova et al., 2022c). Natijada ter ajralib chiqish uchastkalari topografiyasini maxsus kiyimda tahlil qilish vazifasi belgilandi (2-rasm).

Olib borilgan tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, eng ko'p terlash old bo'lakning ko'krak qismida, yeng o'miz qismida, ort bo'lakning kurak qismida, shimda tizzaning orqa qismida, qadam qirqimining yuqori qismida yuzaga keladi.



2-rasm. Maxsus kiyimda ter ajralib chiqish uchastkalari topografiyasi

Ko'p terlaydigan uchastkalar topografiyasini o'rganish natijasida ventilyatsiya (shamollatish) elementlari joylanishi zarur bo'lgan zonalar aniqlandi:

- kiyim yeng qo'ltiq pastki qismida tirqish (xishtak);
- kiyimning old va ort bo'lak koketkalarining pastki qismida yoki old va ort bo'lak koketka relyef chokida tirqishlar;
- shimning tizza orqa bukish qismida tirqishlar;
- shim odim choki yuqori qismida tirqish.

Koketkalarining pastki chetidagi burchak va tirqishlar uchun ergonomik va estetik talablarni inobatga olgan holda, bitta o'lchamdagi variant tanlandi.

Kuzatish natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, maxsus kiyimning funksional xususiyatini oshirish maqsadida sintetik tolalarni aralash tolali matolarga qo'shishni me'yorlash uchun tanda bo'yicha paxta+polyester, arqoq bo'yicha esa paxta+viskoza tolali mato hamda maxsus kiyimning havo aylanish xususiyatlarini yaxshilash uchun ko'p terlash yuzaga keladigan uchastkalarda ventilyatsiya elementlaridan (to'rlardan) foydalanib maxsus kiyim loyihalash maqsadga muvofiq.

Gigiyenik talablar nuqtayi nazaridan aralash tolali matodan tayyorlangan maxsus kiyimlarning ratsional dizaynini ishlab chiqish va kiyimda havo almashinuvini yaxshilash uchun havo o'tkazuvchanligi hamda namlikni shimish xususiyati yuqori bo'lgan matolardan foydalanish, shuningek, maxsus kiyim uchastkalariga ventilyatsiya elementlari qo'llash jarayonini amalga oshirish lozim (Mamasolieva et al., n.d.; Rasulova & Mamasolieva, 2020).

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot davomida maxsus kiyimlarning gigiyenik xususiyatlarini yaxshilash, shu bilan birga, uning mustahkamligini oshirish uchun tanda bo'yicha paxta + PET, arqoq bo'yicha paxta + viskoza tolalari asosida yaratilgan aralash tolali mato namunalari qo'llandi. Aralash tarkibli matoning strukturaviy tavsifi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Aralash tolaviy tarkibli matoning tuzilishi tavsifi*

Mato nomi	Tolaviy tarkibi, %		Ipning chiziqli zichligi, teks		Matoning qalinligi, sm	O'rinish turi	Yuza zichligi, g/m ²
	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
Maxsus kiyimbop mato	P 70 PET 30	P 70 V 30	15,4 x 2	20 x 3	0,45	Polotno	220

* P – paxta, V – viskoza tolasi, PET – polyester tolasi.


Ventilyatsiya elementlarining kiyim osti mikroiklim ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash uchun maxsus kiyimlar namunasi uch xil variantda tayyorlandi. Birinchi namuna arqoq bo'yicha 70 % polyester va 30 % paxta tolaviy tarkibli matodan (amaldagi maxsus kiyimdan foydalanildi), ikkinchi va uchinchi namuna tanda bo'yicha 70 % paxta va 30 % polyester, arqoq bo'yicha 70 % paxta va 30 % viskoza tolaviy tarkibli matodan (loyihadagi maxsus kiyim) tayyorlandi.

Maxsus kiyimlarda ventilyatsiya elementlari quyidagi uchastkalarda joylashgan (namunalar matoning tolaviy tarkibi bilan farqlanadi):


- kurtkaning old, orqa koketkalarining asosiy detalga biriktirilgan choklarida to'r matosidan qo'yilgan tirqishlar; yeng o'mizining qo'ltiq qismida to'r matosidan rombsimon shaklda qo'yilgan xishtak; shimning orqa detalida tizza ortida to'r qo'yilgan tirqishlar (2-rasm);

- kurtkaning old koketka relyef choklarida to'r qo'yilgan tirqishlar, ort bo'lak o'rta chokida molniya tasma va to'r matosidan qo'yilgan tirqishlar; yeng o'mizining qo'ltiq qismida to'r matosidan rombsimon shaklda qo'yilgan xishtak; shim odim choklarining yuqori qismida molniya tasma va to'r matosidan qo'yilgan tirqishlar; shimning orqa detalida tizza ortida to'r qo'yilgan tirqishlar (3-rasm).

Ishchi ish harakatlarini amalga oshirayotganda, maxsus kiyim osti muhiti bo'shlig'i va tashqi muhit o'rtasida o'zaro havo almashinuvi amalga oshirilishi tadqiq qilindi. Tashqi havo maxsus kiyimning kiyim osti muhitiga kirish tirqishlari orqali so'rilishi va kiyim osti havosi chiqish tirqishlari orqali tashqi muhitga chiqarilishi sxemasi ishlab chiqildi (2–3-rasm).



2-rasm. Maxsus kiyimning tashqi muhit bilan havo almashinish sxemasi




3-rasm. Maxsus kiyimning tashqi muhit bilan havo almashinish sxemasi

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishchilar mehnat faoliyati davomida inson tanasi va kiyim ostida havo aylanishini ta'minlash uchun tanda bo'yicha 70 % paxta, 30 % polyester, arqoq bo'yicha 70 % paxta, 30 % viskoza tolaviy tarkibli mato va uchastkalariga ventilyatsiya elementi (to'r) qo'yilgan yangi assortimentdagi maxsus kiyim tavsiya etildi hamda avtomobil sanoati ishchilari uchun yangi assortimentdagi model namunasi yaratildi (4-rasm).

Maxsus kiyimni loyihalashda Koketkin et al. (1982)ning "Промышленное проектирование специальной одежды" qo'llanmasidan foydalanildi. Avtomobil sanoati ishchilari maxsus kiyimi ishchining statik va dinamik harakatlariga qulay bo'lishi kerak. Shu maqsadda kiyim konstruksiyasini qurishda ko'krak aylanasi qo'shimchalari normallashtirildi va yeng o'mizi o'zgarishi natijasida yeng o'lchamlariga ham qo'shimcha qiymatlar qo'shildi.



4-rasm. Avtomobil sanoati ishchilari uchun maxsus kiyimning yangi model namunasi



5-rasm. Tavsiya etilayotgan maxsus kiyim komplektidagi kurtkaning asos konstruksiyasi chizmasi (kurtka va shim)

O'tqazma yangli kurtka uchun bajarildi (5-rasm).

Yeng o'mizining o'zgarishi va ko'krak aylanasi o'lchamining normallashtirilgan qo'shimcha o'lchamlari yengning erkin harakatlanishini ta'minlaydi. Maxsus kiyimni loyihalashda ventilyatsiya elementlaridan foydalanish kiyim ostida havo aylanishini ta'minlaydi va ishchining mehnat faoliyatini yanada yaxshilaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avtomobil sanoati ishchilarining amaldagi maxsus kiyimini kiyish jarayonida ter ajralib chiqish uchastkalari topografiyasini o'rganish asosida ko'p terlash yuzaga keladigan uchastkalarda ventilyatsiya elementlaridan (to'rlardan) foydalanish orqali maxsus kiyim loyihalash vazifasi amalga oshirildi. Ishchi ish harakatlarini amalga oshirayotganda, maxsus kiyim osti muhiti bo'shlig'i va tashqi muhit o'rtasida o'zaro havo almashinuvi amalga oshirilishi tadqiq qilindi. Bunda tashqi havo maxsus kiyimning kiyim osti muhitiga kirish tirqishlari orqali so'rilishi va kiyim osti havosi chiqish tirqishlari orqali tashqi muhitga chiqarilishi natijasida havo almashinish tizimining me'yorda amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Maxsus kiyim assortimentini shakllantirish maqsadida havo o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, ishqalanishga chidamliligi va mustahkamligi bo'yicha amaldagi matodan yuqori ko'rsatkichlarga ega va GOST 11209-2014 (2015) talablariga javob beradigan tanda bo'yicha 70 % paxta va 30 % polyester, arqoq bo'yicha esa 70 % paxta, 30 % viskoza aralash tolali matodan maxsus kiyimning yangi model namunasi ishlab chiqildi va avtomobil sanoati yig'uv sexida faoliyat olib boruvchi ishchilarga tavsiya etildi.

REFERENCES

1. Abramov, A. V. (2007). Designing of special moisture-protective clothing with a system of natural ventilation of underclothing space. (In Russian). [Abstract of PhD thesis]. St. Petersburg.
2. Afinogentova, N. V. (2004). Research and development of overalls for workers of automobile industry. Moscow.
3. GOST 11209-2014. (2015). *Fabrics for special clothing General technical requirements. Test methods*. Official ed. Moscow: Standardinform.
4. Koketkin P. P., Chubarova, Z. S., & Afanasyeva R. F. (1982). *Industrial Design of Special Clothing* (p. 185). Moscow: Legkaya i Pishchevaya promyshlennost'.
5. Koketkin, P. P. (2001). *Clothing: technology-technique, processes-quality*. (In Russian). Moscow: Moscow State University of Design and Technology.
6. Lebedeva, Ye. O. (2006). *Research and development of a package of special thermal protective clothing with increased wind resistance*. (In Russian). [Abstract of PHD thesis]. Shakhty.
7. Mamasolieva Sh. L., Rasulova M. K., & Norboeva G. N. (n.d.). *Development of special othes with high hygienic properties* (101 p.) [Monograph]. Novateur Publ. <https://www.novateurpublication.org>
8. Rasulova, M. K., Mamasolieva, Sh. L., & Norboeva, G. N. (2020). A special set of clothing for automobile factory workers (UZ Patent No. SAP 02129). (In Uzbek).
9. Rasulova, M. K., Mamasoliyeva, M. Sh., & Norboyeva G. N. (2023). Studying the exploitation peculiarities of special clothing. *Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training*, (10), 61–62.
10. Rasulova, M. K., Tashpulatov, S.Sh., & Mamasolieva, Sh.L. (2022c). Development of special clothing with high hygienic properties. *Innovations and technologies to the development of the theory of modern fashion "Fashion (Materials. Clothing. Design. Accessories): Proceedings of the 2nd international scientific-practical conference* (pp. 266–270). (In Russian). MRSU named after A.N. Kosygin.
11. Rasulova, M., Mamasolieva, S., Babadjanova, M., & Norboyeva, G. (2022b). Selection of sewing thread for connecting details of workwear from fabrics of new structures. *AIP Conference Proceedings* (vol. 2430, no. 1). AIP Publ.
12. Rasulova, K., & Mamasolieva, Sh. L. (2020). Development of fabrics with improved hygienic properties for special clothing. *Textile Journal of Uzbekistan*, 51–58.
13. Rasulova, M., Mamasolieva, Sh., & Norboyeva, G. (2022a). Development of Special Clothing with High Hygienic Properties. *Gongcheng Kexue Yu Jishu*, 54(02), 5633–5638. <http://advancedengineeringsscience.com/article/527.html>
14. Surzhenko, E. Ya. (2001). Theoretical bases and methodical support of ergonomic design of special clothes. (In Russian). [PhD thesis]. Moscow.
15. Zhigalova, T. M. (1991). *Development of rational design of overalls from synthetic materials*. (In Russian). [Abstract of PHD thesis]. Moscow.
16. Zhilisbaeva, R. O. (2007). Methodological bases of designing special clothes for workers of metallurgical and metal-working industry. (In Russian). [Abstract of PhD thesis]. Moscow.
17. Zhuravleva, N. L. (2015). *Development of a method of designing a special purpose underwear suit for creation of comfortable underclothing microclimate*. (In Russian). [PhD thesis]. Moscow.

UDC: 687.016.5-053.2:616-007.17(045)(575.1)

EDN: <https://elibrary.ru/bildxq>

BOLALAR ORTOPEDIK MOSLASHUVCHAN KIYIMI UCHUN QO'LLANADIGAN MATERIALLARNING XUSUSIYATLARI TADQIQINI EKSPERT BAHOLASH

Orziqulova Gavharxon Sultonmurod qizi¹, Rasulova Mastura Kabilovna²

¹“Tabiiy tolalar va matoga
ishlov berish texnologiyasi”
kafedrası assistenti
ORCID: 0000-0002-0927-9306
e-mail: gavharxon.
orziqulova@bk.ru

²texnika fanlari doktori,
professor, “Tikuv buyumlari
texnologiyasi va raqamli
injiniring” kafedrası mudiri
ORCID: 0000-0002-5533-5946
e-mail: mastura_m@mail.ru

¹Jizzax politexnika instituti

²Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi sifati va ishonchligini ta'minlash maqsadida tavsiya etiladigan materiallarning xususiyatlari tadqiqi ekspert baholandi. Tadqiqotda materiallar xususiyatlarining ahamiyatlilik ko'rsatkichlarini ekspert baholash usulidan foydalanildi. Ushbu usul mutaxassislar fikrini umumlashtirib, asosiy ko'rsatkichlarni aniqlab berishi bilan boshqa usullardan farq qiladi. Ekspertlar sifatida tikuv buyumlari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish yo'nalishi mutaxassislari respondent o'rnida ishtirok etdi. Tadqiqot obyekti uchun bolalar kiyimlarini tayyorlashda eng ko'p foydalaniladigan xomashyo, ya'ni mahalliy ishlab chiqarishdagi paxta tolali trikotaj gazlamalari tanlandi. Tikuv buyumlari ishlab chiqarishdagi uzish kuchi, namlik bilan ishlov berilganda, chiziqli o'lchamlari o'zgarishi, havo o'tkazuvchanlik, uzilishdagi uzayish, rang barqarorligi, pillinglanish, gigroskopiklik, ishqalanishga chidamlilik xususiyatlari ko'rsatkichlari olindi. Bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimida ahamiyatliligi yuqori bo'lgan ko'rsatkichlar ekspertlar so'rovi yordamida aniqlandi. Ahamiyatliligi yuqori bo'lgan ko'rsatkichlardan bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi ishlab chiqarishda material tanlash uchun foydalanish tavsiya etildi.

Kalit so'zlar: uzish kuchi, gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik, pillinglanish, rang barqarorligi, uzilishdagi uzayish.

ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА ИССЛЕДОВАНИЯ СВОЙСТВ МАТЕРИАЛОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ ДЛЯ АДАПТИВНОЙ ОРТОПЕДИЧЕСКОЙ ДЕТСКОЙ ОДЕЖДЫ

Орзикулова Гавхархон Султанмурод кизи¹, Расулова Мастура Кабиловна²

ассистент кафедры
«Технология обработки
натуральных волокон и
материала»

доктор технических наук,
заведующая кафедрой
«Технология швейных
изделий и цифрового
инжиниринга»

¹Джизакский
политехнический институт

²Ташкентский институт
текстильной и лёгкой
промышленности

Аннотация. В данной статье дана экспертная оценка характеристик материалов, рекомендуемых для обеспечения качества и надёжности адаптивной ортопедической детской одежды. В исследовании использован метод экспертной оценки показателей значимости свойств материалов. Этот метод отличается от других тем, что суммирует мнение специалистов и уточняет основные показатели. В качестве экспертов участвовали специалисты в области технологии швейных изделий и первичной обработки сырья. Для объекта исследования было выбрано наиболее часто используемое сырьё для изготовления детской одежды, а именно хлопчатобумажные трикотажные ткани отечественного производства. Получены показатели прочности на разрыв при производстве швейных изделий, изменения линейных размеров при влажной обработке, воздухопроницаемости, удлинения при разрыве, стабильности цвета, пиллингуемости, гигроскопичности, характеристик устойчивости к истиранию. Высокозначимые показатели адаптивной ортопедической детской одежды были выявлены с помощью экспертного опроса. Высокозначимые показатели рекомендовано использовать для подбора материала при изготовлении адаптивной ортопедической детской одежды.

Ключевые слова: прочность на разрыв, гигроскопичность, воздухопроницаемость, пиллингуемость, стабильность цвета, удлинение при разрыве.

EXPERT EVALUATION OF THE STUDY OF THE PROPERTIES OF MATERIALS USED FOR ADAPTIVE ORTHOPEDIC CHILDREN'S CLOTHING

¹Assistant of the Department "Technology of natural fibers and material processing"

²Doctor of Technical Sciences, Head of the Chair of "Technology of sewing and digital engineering"

¹Jizzakh Polytechnic Institute

²Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Kelib tushgan/Получено/
Received: 24.09.2024

Qabul qilangan/Принято/
Accepted: 07.10.2024

Nashr etilgan/
Опубликовано/Published:
31.10.2024

Orzikulova Gavkharkhon Sultanmurod kizi¹, Rasulova Mastura Kabilovna²

Abstract. The article reveals expert assessment of properties of recommended materials conducted in view to ensure quality and reliability of adaptive orthopedic children's clothing. The study employed a method of expert evaluation of material properties, which is distinct from other methods in that it summarizes opinions of specialists and determines main indicators. Specialists in the field of sewing technology and primary processing of raw materials acted as experts and respondents. The object of the research work is the most commonly used raw materials in the manufacture of children's clothing, local production of cotton and knit fabrics. Indices of tensile strength in garment production, change in linear dimensions during wet processing, air permeability, elongation at break, color stability, pilling ability, hygroscopicity, and abrasion resistance characteristics were obtained. The indicators with high significance in adaptive orthopedic children's clothing were determined using an expert survey. Indicators of high significance have been recommended for reference in selection of materials for manufacture of adaptive orthopedic children's clothing.

Keywords: tensile strength, hygroscopicity, breathability, pilling, color stability, elongation at break.

Kirish

Respublikamizda bolalarning sog'lom ulg'ayishi, ta'lim-tarbiya olishi va yaxshi hayot kechirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori 2022–2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida bo'lib, unda sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida onalar va bolalar o'rtasida kasallik profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog'lomlashtirish dasturlarini amaliyotga joriy etish, sog'lom farzand tug'ilishi va rivojlanishi asosiy vazifa etib belgilangan. Sog'ligida muammosi bo'lgan ko'plab insonlar uchun davolash, reabilitatsiya buyumlari va moslashuvchan kiyimlar muhim ahamiyatga ega. Ular bir qancha noqulayliklarni bartaraf etish, cheklovlarining oldini olish, shu bilan birgalikda, tuzalish muddatini qisqartirishga yordam beradi (González et al., 2012).

Bolalar orasida chanoq-son bo'g'imi displaziyasi va son suyagining tug'ma chiqishi keng tarqalgan. Ushbu kasallik dastlabki vaqtlarda tashxis qo'yish qiyin bo'lgan kasalliklardan hisoblangan. Kech tashxislanib davolanganda, bu kasalliklar ko'pincha og'ir asoratlar yoki nogironlik holatigacha olib kelishi mumkin. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari tarkibida chanoq-son bo'g'imi displaziyasi va son suyagining tug'ma chiqishi holatlarining ulushi 73,2 foizgacha yetadi. Davolash jarayonlari kasallik holatiga ko'ra belgilanib, chanoq-son bo'g'imi displaziyasida, asosan, keruvchi moslamalardan tuzatuvchi sifatida foydalaniladi (Rasulova & Orzikulova, 2023a). Davolash jarayoni samaradorligini oshirishda funksional kiyimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida yosh bolalarda ortopedik kasalliklardan chanoq-son bo'g'imi displaziyasi bo'yicha murojaatlar soni o'sish tendensiyasiga ega. Shuning uchun ushbu toifadagi bolalar uchun kiyim-kechak ishlab chiqarish dolzarb bo'lib qolmoqda (Rasulova, M., & Orzikulova, G. S. k. (2023b).

Bolalar tanasi juda sezuvchan bo'lgani bois ular uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar bir qancha yuqori ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi (National Retail Association, 2020). Respublikamizda L. Shamuhitdinova, U. Muminova, D. Isayeva kabi olimlar bolalar kiyimlari va ularga qo'yiladigan talablar to'g'risida samarali tadqiqot ishlari olib borishgan. Xorijiy davlatlarda ushbu tadqiqot ishining dolzarb masalalari A. Bikbulatova,

G. Wenrong, J.B. Delano, J. Telford, D.M. Lubicklar tomonidan o'rganilgan. Ular bolalar uchun qulay kiyimlar, bolalarga aynan kasallik davrida tuzalishga yordam beruvchi moslashuvchan kiyimlar loyahasini ishlab chiqish borasida samarali tadqiqotlar o'tkazgan.

Bolalar chanoq-son bo'g'imi displaziyasi kasalligini davolashda ham moslashuvchan kiyimdan foydalanish davolanish samaradorligini oshiradi. Mahsulot bolalarga mo'ljallanganligi sababli bu turdagi kiyimlar ishlab chiqishda xomashyoga qo'yiladigan talablar muhim ahamiyatga ega (GOST 32119-2013, 2013; GOST ISO 9237-2013, 2013). Bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi uchun qo'llanadigan materiallar xususiyatlari tadqiqini ekspert baholash ishlab chiqiladigan mahsulot sifatini oshirish va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi. Shu asnoda bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi uchun talablarning ahamiyatlilik ko'rsatkichlarini kiyim ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar yordamida aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi.

Material va metodlar

Ma'lumki, hozirgi kunda bolalar kiyimlari uchun eng ko'p foydalaniladigan material – bu trikotaj polotnosi hisoblanadi. Trikotaj polotnosi turli mavsumlar uchun mo'ljallanadi hamda har xil uy va kundalik kiyimlar tayyorlashda keng qo'llanadi. Ushbu mato turi qayishqoqligi va mayinligi bilan bolalar kiyimi uchun eng yaxshi tanlovdir. Uning bu xususiyati bola harakatlarini cheklamaslik va kiyimning tanaga botmasligini ta'minlab beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida paxta tolasidan tayyorlanayotgan trikotaj polotnosi nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham o'z o'rniga ega (Toshvilstat.uz, 2024). Moslashuvchan kiyim uchun tavsiya etiladigan materialga qo'yiladigan talablarning eng muhimi – bu gigiyenik talablardir, ammo ularning hammasi ham bir xil ahamiyatga ega emas (Orziqulova & Balbekova, 2023). Materiallarni tanlashda, birinchi navbatda, qaysi xususiyatlarni hisobga olish kerakligi va agar kerak bo'lsa, qaysi birini e'tiborsiz qoldirish mumkinligini aniqlash uchun ko'rsatkichlarning eng muhim asosiy qiymatlari aniqlanishi lozim.

Ushbu tadqiqot ishida natijalarni aniqlash uchun ekspert baholash usulidan foydalanildi. Bolalar ortopedik moslashuvchan kiyimi uchun gigiyenik, estetik, funksional, himoyalovchi, qulaylik talablarini tanlangan material xususiyatlari ta'minlab beradi (Gavharxon et al., 2024).

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kiyim turiga qarab tanlanadigan material xususiyati ahamiyatliligi o'zgarishi mumkin. Tadqiqot ishida mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida bolalar kiyimiga qo'yiladigan talablarning ahamiyati va ularning muhimligini aniqlash maqsadida tarqatmalar tayyorlandi. Jarayon davomida tarqatmada berilgan ko'rsatkichlar baholanishi uchun mutaxassislarga topshirildi va ko'rsatkichlar baholanishiga erishildi. Tavsiya etilgan bolalar kiyimi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi talablarning ahamiyatliligi mutaxassislar tomonidan baholandi. Ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

Sifat ko'rsatkichlari talablarining muhimligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Gi = \frac{Pi}{\sum Pi}$$

Ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan talablar 1 raqami, nisbatan kamroq ahamiyatga ega bo'lgan talablar esa 5 raqami bilan belgilangan.

1-jadvaldan gigiyenik talablar muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi. Gazlama havo o'tkazuvchanligi yuqori, gigroskopik xususiyatlari ijobiy va rang barqarorligi xususiyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tavsiya etilgan buyumga qo'yiladigan talablarning ahamiyati

Talablar	Estetik	Ekspluatatsion	Konstruktiv- texnologik	Gigiyenik	Iqtisodiy
Ahamiyati (P_i)	2	3	4	1	5
Muhimligi (G_i)	0,13	0,2	0,23	0,07	0,3

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, gigiyenik talablar doirasida havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik ko'rsatkichi bolalar kiyimi uchun materiallarga bo'lgan muhim talablar hisoblanadi, shuningdek, gazlama ishqalanish va cho'zilishga chidamli, rangi barqaror hamda yuvish yoki kimyoviy tozalashga bardoshli bo'lishi lozim (Buzov & Alymenkova, 2004).

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot obyekti sifatida bolalar kiyimi ishlab chiqarishda eng ko'p foydalaniladigan mahalliy ishlab chiqarishdagi paxta tolali trikotaj gazlamalari tanlandi.

O'n nafar respondentlardan iborat ekspertlar guruhiga $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7$ va x_8 matolari xususiyatlari muhimligini aniqlash, bolalar kiyimlarini ishlab chiqarishda gigiyenik va ekspluatatsion talablarni ta'minlash taklif qilindi:

x_1 – uzish kuchi, n ;

x_2 – namlik bilan ishlov berilganda, chiziqli o'lchamlari o'zgarishi, %;

x_3 – havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{m}^2 \text{ sek.}$;

x_4 – uzilishdagi uzayishi, %;

x_5 – rang barqarorligi, ball;

x_6 – pillinglanishi, dona;

x_7 – gigroskopikligi, ball;

x_8 – ishqalanishga chidamliligi, sikl.

Eng muhim xususiyatga ($R-1$), nisbatan kamroq ahamiyatga aga xususiyatga ($R-2$), eng ahamiyatsiz xususiyatga ($R-8$) darajalar beriladi.

Har bir ekspert darajalari yig'indisi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi (Zhernitsyn & Gulamov, 2007):

$$\sum_{i=1}^n R = 0,5n(n+1), \quad (1)$$

bu yerda: n – darajalar soni.

Har bir xususiyat uchun γ_i nisbiy ahamiyatga egalik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\gamma_i = \frac{1}{S_i \sum_{i=1}^n \frac{1}{S_i}}, \quad (2)$$

bu yerda: S_i – har bir i -xususiyati uchun darajalar yig'indisi.

Respondentlar fikriga ko'ra, eng muhim omillar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\gamma_i \geq \frac{1}{n}. \quad (3)$$

Ushbu tanlangan (qoldirilgan) xususiyatlarning har biri uchun muhimlik koeffitsiyenti γ_k quyidagi formula yordamida aniqlanadi (Pinchuk, 2008):

$$\gamma_k = \frac{1}{S_k \sum_{k=1}^n \frac{1}{S_k}} \quad (4)$$

Qoldirilgan xususiyatlarining nisbiy ahamiyati β_k ning tashlab qo'yilgan xususiyatining ahamiyatlilik ko'effitsiyentining tashlab qo'yilgan xususiyatining ahamiyatlilik ko'effitsiyentlarining minimaliga nisbati sifatida hisoblanadi (Sidnyaev & Vilisova, 2011):

$$\beta_k = \frac{\gamma_k}{\gamma_{min}} \quad (5)$$

Har bir xususiyat uchun W kelishuv ko'effitsiyentini hisoblash uchun quyidagilar aniqlanadi (Kononyuk, 2010):

$$(S_i - \bar{S}) \text{ va } (S_i - \bar{S})^2$$

Bu yerda: $\bar{S}$ – barcha ko'rsatkichlar bo'yicha darajalarning o'rtacha yig'indisi.

Ekspert baholashlarining izchilligini aniqlash uchun quyidagi formula yordamida kelishish (muvofiqlik) W ko'effitsiyenti aniqlanadi (Rasulova & Orzikulova, 2023b):

$$W = \frac{\sum_{i=1}^n (S_i - \bar{S})^2}{\frac{1}{12} m^2 (n^3 - n) - m \sum_{j=1}^m T_j}, \quad (6)$$

bu yerda: $T_j = 0$ inobatga olingan holda (Sidnyaev & Vilisova, 2011).

Muvofiqlik ko'effitsiyenti W ning ahamiyatini baholash uchun χ^2 mezon hisoblanadi:

$$\chi^2 = Wm (n - 1) \quad (7)$$

Ushbu mezon erkinlik darajasidagi mezonning jadval qiymati $\chi_{2\text{табл.}}$ bilan taqqoslanadi:

$$S = n - 1$$

2-jadval

Bolalar kiyimlari uchun trikotaj materiallarining konstruktiv-texnologik talablariga ta'sir qiluvchi omillarni ekspert baholash

№	Omillar/Ekspertlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Y
	Uzilish kuchi	6	5	8	8	8	8	8	8	7	8	74
	Namlik bilan ishlov berilganda, chiziqli o'lchamlari o'zgarishi	2	6	5	4	3	3	4	5	5	4	41
	Havo o'tkazuvchanligi	1	2	1	1	2	2	1	1	1	1	13
	Uzilishdagi uzayishi	5	4	4	5	4	6	6	6	6	7	53
	Rang barqarorligi	4	3	3	3	5	4	3	2	3	3	33
	Pillinglanishi	7	8	6	6	6	5	5	4	4	5	56
	Gigroskopikligi	3	1	2	2	1	1	2	3	2	2	19
	Ishqalanishga chidamliligi	8	7	7	7	7	7	7	7	8	6	71
	$\sum R_{ij}$	36	36	36	36	36	36	36	36	36	36	

Har bir ekspertning darajalari yig'indisi quyidagi formula yordamida aniqlanadi (Kononyuk, 2010):

$$\gamma_i = \frac{1}{S_i \sum_{i=1}^n \frac{1}{S_i}},$$

$$\sum_{i=1}^n Rij = 0,5 * 8(8 + 1)$$

3-jadval

Bolalar kiyimlari uchun trikotaj gazlamalarining konstruktiv-texnologik talablariga ta'sir qiluvchi nisbatan muhim bo'lgan omillarni aniqlash

Ekspertlar	Omillar								$\bar{a} R_{ij}$	T_j
	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5	x_6	x_7	x_8		
1	6	2	1	5	4	7	3	8	36	0
2	5	6	2	4	3	8	1	7	36	
3	8	5	1	4	3	6	2	7	36	
4	8	4	1	5	3	6	2	7	36	
5	8	3	2	4	5	6	1	7	36	
6	8	3	2	6	4	5	1	7	36	
7	8	4	1	6	3	5	2	7	36	
8	8	5	1	6	2	4	3	7	36	
9	7	5	1	6	3	4	2	8	36	
10	8	4	1	7	3	5	2	6	36	
S_j	74	41	13	53	33	56	19	71	360	
g_j	0,021	0,13	0,27	0,09	0,16	0,08	0,21	0,032		
$Mn - S_j$	6	39	67	27	47	24	61	9		
g_{j0}		0,182	0,313		0,219		0,285			
d_{j0}		1,0	1,71		1,20		1,56			
$S_j - S$	38	5	-23	17	-3	20	-17	35		
$(S_j - S)^2$	1444	25	529	289	9	400	289	1225	4210	

Har bir xususiyat uchun nisbiy ahamiyatga egalik koeffitsiyent γ_i quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\gamma_i = \frac{1}{S_i \sum_{i=1}^n \frac{1}{S_i}}, \quad (8)$$

bu yerda: S_i – har bir i-xususiyati uchun darajalar yig'indisi (Rasulova & Orzikulova, 2023b):

$$\gamma_1 = \frac{1}{S_1 \sum_{i=1}^n \frac{1}{S_i}} = \frac{1}{74 \sum_{i=1}^n \frac{1}{74} + \frac{1}{41} + \frac{1}{13} + \frac{1}{53} + \frac{1}{33} + \frac{1}{56} + \frac{1}{19} + \frac{1}{71}} = 0,021$$

Tadqiqot natijalari tahlili

Mutaxassislar fikriga ko'ra x_2 , x_3 , x_5 , x_7 eng muhim xususiyatlar bo'lib, ular uchun quyidagi shart bajarilgan:

$$\gamma_i \geq \frac{1}{n}$$

$$\frac{1}{8} = 0,125$$

shunda (Shershneva, 2001):

$$\gamma_i \geq \frac{1}{n} \geq 0,125 \quad (9)$$

Ushbu tanlangan xususiyatlarning har biri uchun muhimlik koeffitsiyenti γ_k formula yordamida aniqlanadi:

$$\gamma_k = \frac{1}{S_k \sum_{k=1}^n \frac{1}{S_k}}$$

$$\gamma_{j0} = \frac{mn - S_{j0}}{m n n_0 - \sum_i^{n_0} s_{j0}}. \quad (10)$$

β_k nisbiy ahamiyatlilik koeffitsiyentining γ_k tashlab qo'yilgan xususiyatining ahamiyatlilik koeffitsiyentlarining γ_{min} minimaliga nisbati sifatida hisoblanadi (Muminova et al., 2020):

$$\beta_k = \frac{\gamma_k}{\gamma_{min}} \quad (11)$$

Har bir xususiyat uchun W kelishuv koeffitsiyentini hisoblash uchun quyidagilar aniqlandi:


$$(S_i - \bar{S}) \text{ va } (S_i - \bar{S})^2,$$

bu yerda: $\bar{S}$ – barcha ko'rsatkichlar bo'yicha darajalarning o'rtacha yig'indisi (Shamukhitdinova, 1990).

Ekspert baholashlarining izchilligini aniqlash uchun quyidagi formula yordamida kelishish (muvofiglik) W koeffitsiyenti aniqlandi:

$$W = \frac{\sum_{i=1}^n (S_i - \bar{S})^2}{\frac{1}{12} m^2 (n^3 - n) - m \sum_{j=1}^m T_j} = \frac{4210}{4200} = 1,002 \quad (12)$$

Mazkur holda ahamiyatligi jihatdan bir xil omillar yo'q, shuni hisobga olgan holda, $T_j = 0$. Ekspertlarning fikrlari butunlay mos kelganda $W = 1$ bo'ladi. Qanchalik W 1ga yaqin bo'lsa, shunchalik ekspertlarning fikri o'zaro mos keladi (Muminova, 2010). Olingan natijalar ko'rib chiqilayotgan talablar guruhini qondiradigan xususiyatlarning reyting diagrammasini tuzish imkonini beradi (rasm).



Rasm. Konstruktiv-texnologik talablar bajarilishini ta'minlovchi xususiyatlarning xarakteristikallari reytingi diagrammasi

Diagramma (rasm) shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarning fikriga ko'ra, matolarning eng muhim ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: x_2 – namlik bilan ishlov berilganda, chiziqli o'lchamlari o'zgarishi; x_3 – havo o'tkazuvchanligi; x_5 – rang barqarorligi; x_7 – gigroskopikligi ko'rsatkichlari. Qolgan ko'rsatkichlar konstruktiv-texnologik talablar bajarilishini ta'minlaydigan xususiyatlar uchun kamroq ahamiyatga ega.

Olib borilgan tadqiqot natijalari uch oylikdan bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ortopedik moslashuvchan kiyim ishlab chiqarishda gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, to'g'ri tanlash va qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalaridan kelib chiquvchi xulosalarga ko'ra, ekspertlar fikri o'zaro mos, ahamiyatliligi jihatidan bir xil omillar yo'q, tahlillar natijalari omillar ahamiyatliligini oqlaydi. Bolalar moslashuvchan kiyimi ishlab chiqishda gazlamaning havo o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, rang barqarorligi, namlik bilan ishlov berilganda, chiziqli o'lchamlari o'zgarishi, ko'rsatkichlarning ahamiyatliligi yuqori. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlarning ruxsat etilgan qiymat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda qo'llanishi mahsulot sifatini oshiradi.

Natijalarga tayangan holda, bolalar moslashuvchan kiyimi loyihasini ishlab chiqish uchun ahamiyatliligi yuqori ko'rsatkichlar material tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Xomashyo tanlashda ushbu ko'rsatkichlarning talab darajalari bajarilishini ta'minlash tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Buzov, B. A., & Alymenkova, N. D. (2004). *Materials science in the production of light industry products*. (In Russian). Moscow.
2. Gavharxon, O., Sarvinoz, O., & Nuriya, Q. (2024). Ta'lim tizimi rivojlanishining yangi bosqichlari [New stages of education system development]. (In Uzbek). *Proceedings of the International Global Conference* (vol. 1, no. 7, pp. 257–262).
3. González, J. C., Olaso, J., Gil, M. N., Puigcerver, S. A., Durá, J. V., & Lopez, I. (2012). FASHION-ABLE: Needs and requirements for clothing, footwear and orthotics of consumers groups with highly individualised needs. *2012 18th International ICE Conference on Engineering, Technology and Innovation* (pp. 1–10). <https://doi.org/10.1109/ICE.2012.6297700>
4. GOST 32119-2013. (2013). Products for newborns and toddlers general technical conditions. (In Russian).
5. GOST ISO 9237-2013. (2013). Textile materials. Method for determination of air permeability. (In Russian).
6. Kononyuk, A. E. (2010). *Fundamentals of scientific research*. (In Russian). Kyiv: CST.
7. Muminova, U. T. (2010). Development of the structure of initial information for the process of complex design of children's early childhood kits. [Abstract of PhD thesis]. (In Russian). Tashkent: Tashkent Institute of Textile and Light Industry.
8. Muminova, U. T., Tashpulatov, S. Sh., Cherunova, I. V., & Sharipova, S. I. (2020). *Development of methodology of complex design of children's clothing*. (In Russian). Kursk.
9. National Retail Association. (2020). Children's Apparel – Product Safety Guidelines.
10. Orziqulova, G., & Balbekova, D. (2023). Pedagogik texnologiyalarda innovatsiyalar [Innovations in pedagogical technologies]. (In Uzbek). *Innovative Research in the Modern World: Theory and Practice*, 2 (7), 20–21.

11. Pinchuk, S. I. (2008). *Organization of experiment in modeling and optimization of technical systems*. (In Russian). Dnepropetrovsk: Independent publishing organization 'Diva'.
12. Rasulova, M., & Orzikulova, G. S. K. (2023a). Analysis of the biomechanics of the musculoskeletal system of young children for the manufacture of clothing. *Science and Education*, 4 (2), 790–792. <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-of-the-biomechanics-of-the-musculoskeletal-system-of-young-children-for-the-manufacture-of-clothing>
13. Rasulova, M., & Orzikulova, G. S. K. (2023b). Ortopedik nuqsoni mavjud bolalar kiyimini ishlab chiqish [Orthopedic care for people with mild orthopedic problems]. (In Uzbek). *Science and Innovative Development*, 6 (1), 54–61. <https://dx.doi.org/10.36522/2181-9637-2023-1-7>
14. Shamukhitdinova, L. Sh. (1990). *Development of rational assortment collections of children's clothing and ways to increase its durability for the conditions of Central Asia*. [Abstract of PhD thesis]. (In Russian). Kiev.
15. Shershneva, L. P. (2001). *Development of technology for designing children's clothing with consideration of psychophysical development of the child*. [PhD thesis]. (In Russian). Moscow.
16. Sidnyaev, N. I., & Vilisova, N. T. (2011). *Introduction to the theory of experiment planning*. (In Russian). Moscow: MSTU.
18. Toshvilstat.uz. (2024). Statistical Agency in the Presence of the President of the Republic of Uzbekistan Tashkent Region Statistical Department. <https://www.toshvilstat.uz/>
19. Zhernitsyn, Y. L., & Gulamov, A. E. (2007). *Methodical instruction on performance of research and laboratory works on testing of textile products*. (In Russian). Tashkent.

UDC: 532.546(045)(575.1)

EDN: <https://elibrary.ru/xfzbpd>

SUV OMBORI DRENAJLARIDA DALA TADQIQOTLARI OLIB BORISH

Arifjanov Aybek Muxamedjanovich¹, Samiyev Luqmon Nayimovich²,
Xoshimov Sardorbek Ne'matjon o'g'li³, Ulashov Qudratilla Chori o'g'li⁴

¹texnika fanlari doktori,
professor
e-mail: www.obi-life@mail.ru

²texnika fanlari doktori
e-mail: luqmonsamiyev@mail.ru

³texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: xoshimov.50907@gmail.com

⁴doktorant
e-mail: qulashov@mail.ru

“Toshkent irrigatsiya
va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy
tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Hozirgi kunda yurtimizda foydalanib kelinayotgan suv omborlarining 95 foizi gruntli to'g'onlardan barpo etilgan. To'g'on tanasi hamda zaminidan kelib chiqadigan filtratsiya jarayonlarining gruntli to'g'onlarga ta'sirini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois suv ombori drenajlarida filtratsiya suvlari tarkibini o'rganish va baholash suffoziya hodisalarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy dala tadqiqotlari davomida Chimqo'rg'on suv ombori to'g'oni tanasidan bo'ladigan filtratsiya suvlarini 19 ta gidropostda o'lchash ishlari amalga oshirildi. Har bir gidropostdan olingan suv namunalarning quruq qoldiq miqdori aniqlanganda, 3a, 4, 7 gidropostlaridagi natijalar yuqori byef suv sathidagi natijalarga juda yaqin bo'ldi. Qolgan gidropostlarda esa bu ko'rsatkichlar ancha yuqori darajada ekanligi tadqiq etildi. Olingan namunalarning pH miqdori pH Meters qurilmasida tekshirilib, bir-biridan katta farq qilmayotganligi ma'lum bo'ldi. Filtratsiya suvlarining loyqalik miqdorini aniqlashda spektrofotometr qurilmasidan foydalanildi va 1, 4, 4a, 5, 6, 7, 7b, 8a gidropostlardan olingan namunalarda loyqalik miqdori yuqori bo'lgani aniqlandi. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, to'g'onlarda filtratsiya suvlari tarkibini o'rganish va filtratsiya jarayonini baholash muhim vazifalardan sanaladi. Bu orqali gruntli to'g'onlarning ishonchli ishlashi ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: suv ombori, gruntli to'g'on, filtratsiya, drenaj, quruq qoldiq, suv tarkibi, loyqalik darajasi.

ПРОВЕДЕНИЕ ПОЛЕВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ДРЕНАЖА ВОДОХРАНИЛИЩА

Арифжанов Айбек Мухамеджанович¹, Самиев Лукмон Найимович²,
Хошимов Сардорбек Неъматжон угли³, Улашов Кудратилла Чори угли⁴

¹доктор технических наук,
профессор

²доктор технических наук

³доктор философии по
техническим наукам
(PhD), доцент

⁴докторант

Национальный
исследовательский
университет
«Ташкентский институт
инженеров ирригации и
механизации сельского
хозяйства»

Аннотация. В настоящее время 95 % водохранилищ, используемых в нашей стране, построены из грунтовых дамб. Актуальным вопросом является изучение влияния фильтрационных процессов на грунтовые плотины, которые возникают как на теле плотины, так и на её дне. Поэтому изучение и оценка содержания фильтрационных вод в стоках водоёма приобретает важное значение для предотвращения явлений суффозии. В ходе естественнонаучных полевых исследований на 19 гидropостах были проведены измерения фильтрационных вод, поступающих из плотины Чимкурганского водохранилища. При определении количества сухих остатков в образцах воды, взятых с каждого гидropоста, результаты на гидropостах 3a, 4, 7 были очень близки к результатам к уровню воды на верхнем бьефе. Однако на остальных гидropостах эти показатели были на гораздо более высоком уровне. Уровни pH полученных образцов были проверены с помощью прибора pH Meters, и оказалось, что они не сильно отличаются друг от друга. Спектрофотометрическое устройство использовалось для определения мутности фильтрационных вод, и было обнаружено, что мутность выше в образцах, взятых с гидropостов 1, 4, 4a, 5, 6, 7, 7b, 8a. Результаты, полученные в ходе этого исследования, показывают, что изучение состава фильтрационных вод в плотинах и оценка процесса фильтрации являются важными задачами. Благодаря этому обеспечивается надёжная работа грунтовых плотин.

Ключевые слова: водохранилище, грунтовая плотина, фильтрация, дренаж, сухой остаток, состав воды, уровень мутности.

FIELD STUDIES OF RESERVOIR DRAINAGE

¹Doctor of Technical Sciences, Professor

²Doctor of Technical Sciences

³Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Associate Professor

⁴Doctoral Student

National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agriculture Mechanization Engineers"

Kelib tushgan/Получено/Received: 21.09.2024

Qabul qilingan/Принято/Accepted: 14.10.2024

Nashr etilgan/Опубликовано/Published: 31.10.2024

Arifzhanov Aibek Mukhamedjanovich¹, Samiev Lukmon Nayimovich², Khoshimov Sardorbek Nematjon ugli³, Ulashov Kudratilla Chori ugli⁴

Abstract. At present, 95% of water reservoirs used in our country are constructed of earth dams. A topical issue is the study of the influence of filtration processes on groundwater dams, occurring both on the dam body and on its bottom. Therefore, the study and evaluation of the filtration water content in the water body runoff is of great importance for the prevention of suffosion phenomena. During the natural-scientific field studies, measurements of seepage water coming from the dam of the Chimkurgan reservoir were carried out at 19 gauging stations. When determining the amount of dry residues in water samples taken from each gauging station, the results at gauging stations 3A, 4, and 7 were very close to the upstream water level. However, at the other gauging stations, these values were at much higher levels. The pH levels of the samples obtained were checked using a pH Meters instrument, and it was found that they were not significantly different from each other. The spectrophotometric device was used to determine the turbidity of the seepage waters, and it was found that the turbidity was higher in the samples taken from gauging stations 1, 4, 4a, 5, 6, 7, 7b, and 8a. The results obtained from this study show that studying the composition of seepage water in dams and evaluating the seepage process are important tasks. This ensures the reliable operation of earth dams.

Keywords: reservoir, earth dam, filtration, drainage, dry residue, water composition, turbidity level.

Kirish

Mintaqada suv resurslari notekis taqsimlanganligi va ularning miqdori cheklanganligi sababli insonlar tomonidan suvni boshqarish uchun suv omborlari (to'g'onlar) bunyod etilgan. To'g'onlardan suvni saqlash, toshqinlarning oldini olish, energiya ishlab chiqarish hamda sanoat iste'moli uchun ham foydalaniladi. Hozirgi kunda foydalanib kelinayotgan grunt to'g'onli suv omborlarining ishonchli hamda xavfsiz ishlashi muhim ahamiyatga ega. Eksploatatsiya qilinayotgan gruntli to'g'onlarda bo'ladigan o'zgarishlarning asosiy sabablaridan biri – bu to'g'on tanasidan bo'ladigan filtratsiya jarayonidir. Bu jarayon to'g'on tanasida suffoziya, ya'ni yuvilish hodisalariga olib kelishi hamda suv ombori to'g'onining siljish yoki cho'kish, ya'ni deformatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan bu jarayonlar suv ombori to'g'onining ishonchli ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Olimlarimiz suv omborlaridagi jarayonlarni baholash bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borgan hamda muayyan natijalarga erishgan.

Adabiyotlar tahlili va masalaning qo'yilishi

Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida ko'plab suv omborlari bunyod etilgan. Suv zaxiralaridan samarali va oqilona foydalanish, vegetatsiya davrida iste'molchilarni bir maromda suv bilan ta'minlash, foydali hajm miqdorini aniq baholash va gidrotexnik inshootlar mustahkamligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda (Arifjanov et al., 2024a).

Suv omborlaridan ishonchli va samarali foydalanish bo'yicha reja ishlab chiqish, inshootlarning xavfsiz ishlashi uchun suv omborida saqlanadigan suv hajmini aniq bilish talab etiladi. Shu bilan birga, suv ombori to'g'on xavfsizligi va xizmat muddatlarini oshirish, to'g'onlarni ishonchli eksploatatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan (Arifjanov et al., 2024b). Jumladan, gruntli ko'tarma to'g'onlarning drenaj qurilmalari, gruntli ko'tarma

to'g'onlarda drenajlar depressiyasi egri chizig'ini pasaytirish, filtratsiya oqimining qiyalikka chiqishiga yo'l qo'ymaslik va to'g'on tanasi orqali o'tadigan filtratsiya suvlarini pastki b'efga chiqarib yuborish ekspluatatsiya davrida dolzarb vazifalardan biridir (Arifjanov et al., 2020).

Chimqo'rg'on suv omborining ekspluatatsiya davri 60 yildan ortiq ekanligini inobatga olsak, respublikamizda ham xorijdagi kabi gidrotexnika inshootlarini kapital ta'mirlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilayotgani bejiz emas (Gapparov et al., 2020).

Hozirgi kunda ekspluatatsiya qilinayotgan 70 dan ziyod suv omborlarining 90 %dan ortig'i o'tgan asrning 70-yiligacha qurib foydalanishga topshirilgan (Arifjanov et al., 2023). Chimqo'rg'on suv ombori 1963-yil foydalanishga topshirilgan bo'lib, suv ombori to'g'on tanasidan bo'ladigan filtratsiya sarfining oshishi 1973-yildan boshlab ilk ilmiy izlanishlar olib borilishiga sabab bo'lgan. Shularni inobatga olib, tadqiqotchilar Chimqo'rg'on suv omborida filtratsiya jarayoni, asosan, grunt to'g'on zaminida kuzatilayotganini ko'rib chiqdi va zamin daryo o'zanida joylashgan degan xulosaga keldi (Arifjanov et al., 2024c).

O'tgan asrlarda ham tekislikda joylashgan suv saqlash havzalarida filtratsiya natijasida suvning yo'qolish sabablari, inshootlarda filtratsiyaning jadallashishiga olib keladigan omillarning oldini olish bo'yicha ham ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Arifjanov et al., 2022). Suv omborlariga suv bilan birga kirib keladigan cho'kindilar kimyoviy tarkibining fraksional o'zgaruvchanligi hamda vegetatsiya davrida o'zgarishi bu jarayonning asosiy omili hisoblanadi (Samiyev et al., 2020). Shuningdek, suv omboridagi suv resurslarini boshqarish rejimi va to'plangan suvdan yil davomida foydalanish rejasiga qarab, har bir suv ombori uchun alohida ishlar amalga oshiriladi (Samiev et al., 2023a).

Olimlar o'z ishlarida tabiiy ko'llarga nisbatan daryo o'zanida joylashgan suv omborlarida loyqa cho'kindilar miqdori va tarqalishi ko'p ekanligini aniqlagan (Samiev et al., 2023b). Shu bilan bir qatorda, tabiiy o'zanli kanallarda ham loyqa bosish orqali deformatsiyalanish jarayoni yuzaga kelib, kanallarning suv o'tkazish qobiliyati kamaya boshlaydi (Samiev et al., 2024).

Tadqiqotchilar gilli yadro yordamida gruntli to'g'ondan bo'ladigan filtratsiya jarayonini tahlil qilish bo'yicha izlanishlar olib borishgan. Ular gruntli to'g'on tanasidan suvning oqib o'tishini o'lchash maqsadida vertikal va qiya drenajlardan foydalangan. Shuningdek, gruntli to'g'onlarda yuzaga keladigan filtratsiya jarayonining turli modellarini qo'llab, bu jarayonning to'g'on strukturasi va barqarorligiga ta'sirini o'rganishgan (Fakhari & Ghanbari, 2013). Filtratsiya jarayoni dala kuzatuvlari orqali tahlil qilingan. Qozog'istonning "Bugun" suv ombori to'g'on tanasidan bo'layotgan filtratsiya holati, drenajdagi filtratsiya oqim tezligi, drenaj shakli, filtratsiya yo'nalishi, suv harorati va oqimning kimyoviy tarkibi nazorat va o'lchash uskunalar bilan o'rganilib, zarur xulosalar olingan (Panov & Veselov, 2016).

P.V.Kondratenko et al. (2018) o'z ishlarida suv omborlarida muhandislik-geologik tadqiqotlar olib borib, ekspluatatsiyadan so'ng to'g'on tanasi va poydevor gruntlarining filtratsiya xususiyatlarini miqdoriy baholagan. Ularning ishlarida drenajning ishlash muddati, filtratsiyaga qarshi filtrning sezuvchanligi sezilarli o'zgarishlarga duch kelishi mumkinligi aniqlangan.

"Massingir" to'g'oni tosh-gruntli to'g'on hisoblanib, maksimal balandligi 46 m ni tashkil qiladi. Gil yadroli va tekis gorizontall drenajga ega. 1977-yilda ekspluatatsiya boshlanganidan keyin to'g'onda pastki b'ef zonasining botqoqlanishi va to'g'on poydevorida suffoziya jarayonlari kuzatildi. Loyihaviy yechimlar varianti sifatida to'g'onning pastki qismidagi oqim tomonida ekran yoki yuqori oqimda diafragma o'rnatish taklifi ko'rib chiqilgan

(Orischuk, 2018). Tadqiqotchilar suv ombori zaminida shag'al qatlamlari orqali filtratsiya oqimining o'zgarishini aniqlagan va filtratsiyaning jadallashishini hisobga olgan holda, to'g'on chap qirg'oq zaminidan filtratsiyani kamaytirish uchun quyidagi ikkita variantni tavsiya etgan: a) sementatsiya yoki b) to'g'on oldi chap qirg'oq zaminidan suv o'tkazmas qatlamgacha plastik devor kesish (Jain & Choudhary, 2019).

Loyiha mualliflari suv o'tkazmaydigan geomembrana shaklida to'g'on yuqori b'ef tomonida ekran qurish bo'yicha chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini ta'kidlashsa ham, ishni tashkil etishning murakkabligi tufayli bu chora-tadbirlarni amalga oshirish bekor qilingan (Montfort & Breul, 2019; Vaschetti et al., 2019). Olimlar grunt to'g'on yuqori b'efida kuzatiladigan filtratsiyani kamaytirish uchun asfalt-beton va bitum materiallarini sinovdan o'tkazishning ilg'or texnologiyalari ustida izlanishlar olib borishgan (Muller & Wilson, 2018).

Chouireb & Djehiche (2019) o'z izlanishlarida SEEP/W dasturidan foydalangan holda, vertikal drenajli gruntli to'g'on tanasi orqali filtratsiya oqimi tahlilini Harreza to'g'onining yuqori b'ef uch xil suv sathi uchun PK 28 da amalga oshirgan. Modelda olingan natijalar dala tadqiqotlarida olingan ma'lumotlar bilan solishtirganda, natijalar loyihaviy parametrlariga mos kelishi aniqlangan.


Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, gruntli to'g'on suv omborlarida filtratsiya depressiya egri chizig'ini pasaytirish uchun bir nechta konstruksiyalar taklif qilingan. Ba'zi olimlar drenaj qurilmalarining filtratsiya jarayonidagi muhim rolini aniqlashgan. Ammo ular filtratsiya jarayonlarini o'rganishda drenajlardan chiqayotgan suvlar tarkibini inobatga olmagan. Respublikamizdagi suv omborlarining 95 foizdan ortig'i gruntli to'g'onlardan iborat bo'lib, hozirgi kunda ulardan turli maqsadlarda foydalanib kelinmoqda. Gruntli to'g'onlarning ishonchli va xavfsiz ishlashi uchun to'g'on tanasidan bo'ladigan filtratsiya jarayonlarini to'g'ri baholash, drenaj orqali chiqayotgan filtratsiya suv sarfini yuqori b'ef suv sathi bilan bog'liq holda tahlil qilish, shuningdek, filtratsiya suvlaridan namunalar olib, laboratoriya sharoitida tekshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi yuqorida ko'rsatilgan muammolarni inobatga olgan holda, Chimqo'rg'on suv omborining yuqori b'ef kosasidan suv namunalari olib, pastki b'ef drenajlaridan chiqayotgan filtratsiya suv namunalari bilan taqqoslashdir. Bu suv namunalari laboratoriya sharoitida tekshiriladi. Shu orqali to'g'on tanasidan o'tayotgan filtratsiya suvlari tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida dala va laboratoriya tadqiqotlari olib borish zarur.

Material va metodlar

Dala tadqiqotlari "Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrası professor-o'qituvchilari hamda doktorantlari tomonidan Qashqadaryo viloyati Qashqadaryo daryo o'zanida qurilgan Chimqo'rg'on suv omborida olib borildi. Suv ombor to'g'oni uzunligi 8 km, to'g'onning maksimal balandligi esa 33 m ni tashkil qiladi. Suv omborining loyihaviy hajmi 500 mln m³, foydali hajmi esa 450 mln m³. Suv ombor to'g'onining PK 27 dan PK 50 gacha bo'lgan uchastkalari daryo o'zanida joylashgan. Ushbu uchastkada 21 ta stvor hamda 116 ta p'ezometrlar qurilgan (1-rasm).

Loyiha bo'yicha to'g'on tanasi hamda zaminidan bo'ladigan filtratsiya suv sarflarini o'lchaydigan gidropostlar 11 ta, shundan 1 tasi umumiy filtratsiya suv sarflarini o'lchash maqsadida qurilgan. Suv omboridan foydalanish davomida filtratsiya suv sathlari ko'tarila boshlagani uchun yana qo'shimcha 8 ta gidropost bunyod etilgan. Hozirgi kunda jami 19 ta gidropostdan ishchi holatda foydalanib kelinmoqda.



1-rasm. Chimqo'rg'on suv ombori tadqiqot hududi

Shulardan loyiha bo'yicha qurilgan 10 ta gidropost birinchi liniya drenaj tizimida joylashtirilgan. Keyingi bosqichda qurilgan 8 ta gidropost ikkinchi liniyada qurilgan.

Tadqiqotlar Chimqo'rg'on o'zanli suv omborida olib borilib, asosan, to'g'on tanasi hamda zaminidan bo'layotgan filtratsiya suvlarini olib chiqib ketuvchi drenajlarda amalga oshirildi. Drenajlarni loyihalashda to'g'on tanasi va zamindagi gruntlar tavsiflari, ularning suffoziya xossalari va drenaj zonasidagi filtratsiya sharoitlari hisobga olinadi. Gidrotexnika inshootlari amaliyotida filtratsiya suv sarflarini hisoblash uchun drenaj konstruksiyalari qo'llanadi. Eng keng tarqalganlari orasida drenaj prizmasi, qatlamli drenaj, kombinatsiyalashgan drenaj, gorizontali yassi drenaj, qiya-gorizontali drenaj, kombinatsiyalangan drenaj, tasmasimon drenaj va quvurli drenajlar asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot obyektida drenaj tizimi quvurli drenaj konstruksiyasidan foydalanilgan bo'lib, filtratsiya suvlari quvurlarda yig'iladi va suv sarfini o'lchaydigan gidropostlar orqali hovuzga tashlanadi.

Filtratsiya suvlarini o'lchaydigan gidropostlarda "Chipoletti" suv o'tkazgichda suv sarfini o'lchash ishlari amalga oshirilmoqda. Suv o'tkazgichlar ko'rinishi (2, 3) rasmda keltirilgan.



2-rasm. 8-gidropost



3-rasm. Umumiy gidropost

Suv ombori to'g'oni va zaminidan o'tayotgan filtratsiya suv sarfini o'lchash uchun umumiy gidropost sekundiga 500 l/s suv o'tkazish qobiliyatiga ega "Chipoletti" suv o'tkazgichida o'lchov-kuzatuv ishlari olib borildi. Suv o'tkazgichdan o'tayotgan suv "Berdoli" kanali tagidan dyuker orqali Qashqadaryo daryosiga chiqariladi.

Tabiiy dala tadqiqoti davomida drenajlardan chiqayotgan filtratsiya suv sarfi hamda gidropostlarning hozirgi ishchi holatini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi (4-rasm). To'g'on tanasidan o'tadigan filtratsiya suvi tarkibini aniqlash uchun esa "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasida laboratoriyasida tadqiqotlar olib borildi (5-rasm).



4-rasm. 1-linya 3-gidropost



5-rasm. Namuna suvlarini laboratoriya sharoitida tekshirish

Laboratoriya sharoitida filtratsiya suvining quruq qoldiq miqdori quritish shkaf pechida amalga oshirilgan (7-rasm). Suvning pH miqdori pH Meters qurilmasi orqali aniqlangan (8-rasm). Olingan namunaning loyqalik miqdorini aniqlash uchun spektrofotometr qurilmasidan foydalanilgan (9-rasm).



7-rasm.
Quritish shkaf pechi



8-rasm. pH Meters



9-rasm. Spektrofotometr

Quruq qoldiq miqdorini aniqlashda tayyorlangan chinni idishlar 110 °C da doimiy og'irlikka yetguncha quritiladi, eksikatorida sovitiladi va og'irligi analitik tarozida o'lchab olinadi. Tarozida o'lchab olingan chinni idishlarga 50 sm³ suv namunasi pipetka bilan o'lchab solinadi va suv hammomiga joylashtiriladi. Namuna chinni idishda to'liq bug'latiladi. To'la bug'latilgan namunalar quritish shkafida 110 °C da doimiy og'irlikka yetguncha quritiladi, eksikatorida sovitiladi va og'irligi analitik tarozida o'lchab olinadi.

Quruq qoldiq miqdori quyidagi (1) formula bilan hisoblanadi:

$$x = \frac{(m_2 - m_1)}{V}, \quad (1)$$

bu yerda: m_1 – tigel og'irligi, g;

m_2 – quritilgan qoldiqli tigel og'irligi, g;

V– bug'latish uchun olingan suv namunasining hajmi, dm^3 .

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot hududida olib borilgan tabiiy dala tadqiqotlari davomida 18 ta gidropostdan drenajlar orqali chiqayotgan filtratsiya suv namunalarining laboratoriya sharoitida quruq qoldiq miqdori, loyqalik darajasi hamda suvning pH miqdorini aniqlash ishlari amalga oshirildi.

Tabiiy dala tadqiqotlari davomida olingan ma'lumotlar quritish shkaf pechidan foydalanib, laboratoriya sharoitida o'rganildi va to'g'on tanasidan o'tuvchi filtratsiya suvlarining quruq qoldiq miqdori aniqlanib, har bir gidropost uchun (1) jadvalda keltirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, buloq hamda 1, 2, 6, 8, 9, 9a gidropostlardan olingan suv namunalarida quruq qoldiq miqdori 2a, 3, 3a, 4, 4a, 5, 6a, 7, 7b, 8a, gidropostlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Drenajlardan chiqayotgan filtratsiya suvlari tarkibidagi quruq qoldiq miqdori

№	Nomi	Qurtilishidan oldingi og'irligi, g	Qurtilgandan keyingi og'irligi, g	$\delta, g/dm^3$
1	YuBSS	25,457	25,412	0,9
2	Buloq	30,714	30,865	3,02
3	1	26,034	26,194	3,2
4	2	28,225	28,378	3,06
5	2a	25,467	25,531	1,28
6	3	25,829	25,881	1,04
7	3a	25,153	25,197	0,88
8	4	27,552	27,596	0,88
9	4a	26,246	26,298	1,04
10	5	25,738	25,799	1,22
11	6	29,233	29,355	2,44
12	6a	37,423	37,488	1,3
13	7	36,735	36,768	0,66
14	7b	39,725	39,799	1,48
15	8	29,219	29,275	1,12
16	8a	42,526	42,687	3,22
17	9	37,519	37,671	3,04
18	9a	36,841	36,997	2,52

Tadqiqot davomida gidropostlardan olingan namuna suvlarining laboratoriya sharoitida pH Meters qurilmasi orqali (2) jadvalda keltirilgan pH miqdori aniqlangan. pH – “potensial vodorod” suvli eritmaning kislota yoki asosligi o'lchovi hisoblanadi.

2-jadval

Drenajlardan chiqayotgan suvning pH miqdori

№	Nomi	pH	№	Nomi	pH	№	Nomi	pH
1	YuBSS	6,66	7	3a	6,54	13	7	6,54
2	Buloq	6,70	8	4	6,88	14	7b	6,70
3	1	6,42	9	4a	6,52	15	8	6,53
4	2	6,55	10	5	6,73	16	8a	6,67
5	2a	6,42	11	6	6,61	17	9	6,58
6	3	6,46	12	6a	6,34	18	9a	6,55

18 ta gidropostlardan olingan filtratsiya suv namunalari natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, filtratsiya suvlarining pH miqdori bir-biridan unchalik katta farq qilmaydi.

Dala tadqiqotlari davomida gidropostlardan olingan suv namunalarining loyqalik miqdori spektrofotometr qurilmasi yordamida aniqlandi va natijalar (3) jadvalda keltirildi.

3-jadval

Drenajlardan chiqayotgan suvning loyqalik miqdori

№	Nomlari	mg/l	№	Nomlari	mg/l
1	YuBSS	0,032	11	6a	0,032
2	1	0,063	12	7	0,053
3	2	0,043	13	7a	0,033
4	2a	0,048	14	7b	0,058
5	3	0,0465	15	8	0,0565
6	3a	0,049	16	8a	0,069
7	4	0,0592	17	9	0,0492
8	4a	0,0598	18	9a	0,0498
9	5	0,051	19	10	0,022
10	6	0,0602			

Chimqo'rg'on suv omborida dala tadqiqotlari olib borildi. Tadqiqot davomida olingan suv namunalar kafedra laboratoriyasida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalar tahlili

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-liniya drenaj tizimi orqali chiqayotgan filtratsiya suvlarining quruq qoldiq miqdori yuqori bo'lgan.

Filtratsiya suvlaridagi loyqalik miqdorini aniqlashda yuqori b'ef suv namunasi bilan pastki be'f drenajlardan chiqayotgan filtratsiya suv namunalari solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, drenajlarning 1, 4, 4a, 5, 6, 7, 7b, 8a gidropostlaridan chiqayotgan filtratsiya suvining loyqalik miqdori YuBSSga nisbatan ancha yuqori.

Xulosa

Tabiiy dala tadqiqotlari Chimqo'rg'on suv omborida olib borilib, suv ombori to'g'oni tanasidan o'tayotgan filtratsiya suvlari drenajlar orqali chiqadigan gidropostlarda o'lchov-kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Suv omborida jami 18 ta gidropost bo'lib, har bir gidropostdan suv namunalari olindi va tarkibidagi quruq qoldiq miqdori, loyqalik miqdori hamda pH ko'rsatkichlari laboratoriya sharoitida o'rganildi.

Laboratoriya tahlillari shuni ko'rsatdiki, 1, 2, 6, 8, 9, 9a gidropostlardagi filtratsiya suvining quruq qoldiq miqdori YuBSS dan olingan suv namunalariga nisbatan sezilarli darajada juda yuqori.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pastki b'efda 18 ta gidropost bo'lib, ulardan 7 tasida filtratsiya suvining loyqalik miqdori YuBSS ga nisbatan ancha yuqori. Bu uchastkalar Chimqo'rg'on suv ombori to'g'onining Pk 37 dan Pk 50 gacha bo'lgan stvorlariga to'g'ri keladi.

Natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak, gruntli to'g'onlarning ishonchli hamda xavfsiz ishlashini ta'mimlash uchun to'g'on tanasi va zaminida sodir bo'ladigan filtratsiya jarayonlarini to'g'ri baholash hamda drenajlardan chiqayotgan filtratsiya suvlari tarkibini tekshirib turish katta ahamiyatga ega. Bu orqali fizik va kimyoviy suffoziya jarayonlarining oldini olish, shuningdek, suv omborining barqaror ishlashini ta'minlash mumkin.

REFERENCES

1. Arifjanov, A., Babajanov, F., Xoshimov, S., & Sultonov, R. (2024b). Distribution of river flow in the river bed. *BIO Web of Conferences*, 105, 05015.
2. Arifjanov, A., Gapparov, F., Apakxujaeva, T., & Xoshimov, S. (2020). Determination of reduction of useful volume in water reservoirs due to sedimentation. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 614 (1), 012079.
3. Arifjanov, A., Samiev, L., Khaydarov, S., Kasimov, T., Juraev, S. (2022). Increasing Efficient Use of Water Storage Pools. *AIP Conference Proceedings* [this link is disabled](#), 2432, 040003
4. Arifjanov, A., Samiyev, L., Babajanov, F., Tadjiboyev, S., & Akramov, J. (2024a). Assessment of the productivity of river sediments. *E3S Web of Conferences*, 538, 03010.
5. Arifjanov, A., Samiyev, L., Ibragimova, Z., & Ulashov, Q. (2023). Effects of water level changes in reservoir basin on coastal erosion. *E3S Web of Conferences, CONMECHYDRO*, 401, 01016. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340101016>
6. Arifjanov, A., Samiyev, L., Xoshimov, S., Ulashov, Q. (2024c). Filtratsiya jarayonini gruntli to'g'onlarga ta'sirini baholash [Assessment of the influence of the seepage process on earth dams]. (In Uzbek). *Science and Innovative Development*, 7, (2).
7. Chouireb, M., & Djehiche, A. (2019). Simulation of seepage flow through an earthen dam with vertical drain and comparison of results with observations data (case study: Harreza dam-Algeria). *Arabian Journal of Geosciences*, (12), 406. <https://doi.org/10.1007/s12517-019-4542-6>
8. Fakhari, A., & Ghanbari, A. (2013). A simple method for calculating the seepage from earth dams with clay core. *J. of Geo-Engg.*, 8 (1), 27–32.
9. Gapparov, F., Nazaraliev, D., & Eshkuvatov, Q. (2020). Assessment of Chimkurgan water reservoir sedimentation processes. *CONMECHYDRO*. <https://doi.org/10.1088/1757-899X/883/1/012039>
10. Jain, A., & Choudhary, R. K. (2019). Rehabilitation of pervious foundation of Kanupur earth dam, Odisha - a case study. *International Dam Safety Conference*, 2, 931–939. Bhubaneswar, Odisha.
11. Kondratenko, P. V., Voronkov, O. K., Sheikin, A. M., Ganin, A. V., & Ushakova, L. F. (2018). Engineering and geo-physical studies of the condition of the left-bank abutment of the concrete dam of Volkhovskaya HPP. (In Russian). *Izvestiya of "Vedeneev VNIIG"*, 288, 37–45.
12. Montfort, A., & Breul, B. (2019). Bituminous geomembrane increasing tendency on Europe, America and Australia, to assume and renew watertightness of dams and reservoirs. *International Dam Safety Conference*, 2, 837–847. Bhubaneswar, Odisha.
13. Muller, D., & Wilson, D. (2018). Asphaltic cores: making embankment dams truly watertight. *The International Journal on Hydropower and Dams*, 25 (1), 169–176.
14. Orischuk, R.N. (2018). Problems of design, construction and operation of clay-cement-concrete diaphragms of earth dams erected by the method of bored piles. *Izvestiya of "Vedeneev VNIIG"*, 287, 3–13.
15. Panov, S. I., & Veselov, A. B. (2016). Peculiarities of operation of piezometric devices in dams with clayey soil elements. (In Russian). *Izvestiya of "Vedeneev VNIIG"*, 280, 65–78.
16. Samiev, L., Khamidov, A., Ungalov, A., & Mamatisaev, G. (2023a). Hydrological analysis of livestock water reservoir using GIS technologies. *E3S Web of Conferences*, 371, 01030
17. Samiev, L., Shaymardonov, S., Xoshimov, S., Mamadiyrov, O. (2023b), Dynamics of sediment formation in natural lakes and reservoirs. *E3S Web of Conferences*, 452, 02019.
18. Samiev, L., Vokhidova, U., Tursunova, E., Babajanov, F., & Shaymardonov, S. (2024). Analysis of the causes of silting of natural channels. *E3S Web of Conferences*, (508), 07006.
19. Samiyev, L., Allayorov, D., Atakulov, D., & Babajanov, F. (2020). The influence of sedimentation reservoir on hydraulic parameters of irrigation channels. *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*.
20. Vaschetti, G., Tronel, F., & Subramanian, J. (2019). Geomembrane systems in dam's rehabilitation: underwater applications. *International Dam Safety Conference*, 2, 830–836. Bhubaneswar, Odisha.



ILM-FAN VA INNOVATSION RIVOJLANISH

НАУКА И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ

SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT

Volume 7 | Issue 5 | September – October 2024

"Ilm-fan va innovatsion rivojlanish" jurnali tahririyati

Manzil: 100174, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 7-uy.

Veb-sayt: <https://ilm.mininnovation.uz>

Telegram: t.me/Ilmfanjournali

Telefonlar: (+998) 99-373-90-35,
(+998) 99-920-90-35

E-mail: ilm.fan@inbox.ru

Obuna indeksi: 1318.

Bosishga ruxsat etildi: 2024-yil 31-oktabr.
Bichimi 60 x 84 ¹/₈. Shartli bosma tabog'i 14,9.
Adadi 500 nusxa.

"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" davlat unitar korxonasi bosmaxonasida ofset qog'ozda chop etildi.

Редакция журнала «Наука и инновационное развитие»

Адрес: 100174, г. Ташкент,
ул. Университетская, 7.

Веб-сайт: <https://ilm.mininnovation.uz>

Телеграм: t.me/Ilmfanjournali

Телефоны: (+998) 99-373-90-35,
(+998) 99-920-90-35

E-mail: ilm.fan@inbox.ru

Подписной индекс: 1318.

Подписано в печать: 31 октября 2024 г.
Формат 60 x 84 ¹/₈. Усл. печ. л. 14,9.

Тираж 500 экз.

Отпечатано на офсетной бумаге в типографии ГУП «Издательско-полиграфический дом инновационного развития».

Editorial Board of the journal "Science and Innovative Development"

Address: 100174, Tashkent city,
st. Universitetskaya, 7.

Website: <https://ilm.mininnovation.uz>

Telegram: t.me/Ilmfanjournali

Phones: (+998) 99-373-90-35,
(+998) 99-920-90-35

E-mail: ilm.fan@inbox.ru

Subscription index: 1318.

Signed for publication: October 31, 2024.

Format 60 x 84 ¹/₈. Conditional printed
sheet 14.9. Circulation 500 copies.

Printed on offset paper in the Printing House
of the State Unitary Enterprise "Publishing
and Printing House of Innovative Develop-
ment".